

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida  
UDK: 687. 112. 001. 63 „ 312 ”

RASHIDOVA MADINA SHUHRAT QIZI

”PRET – A – PORTE YO`NALISHIDA” ERKAKLAR KOSTYUMINI  
LOYIHALASHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

5A150901 – Dizayn (Kostyum dizayni)

Magistrlik

Akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:  
Dots. Yunusxodjayeva X.M.  
Ilmiy maslahatchi:  
f.f.n. dots. Rahmatullayeva U.S.

Toshkent - 2017

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Fakultet\_Yengil sanoat texnologiyasi  
Kafedra\_Kostyum dizayni  
O'quv yili\_2015-2017

Magistratura talabasi\_Rashidova.M.  
Ilmiy rahbar\_Yunusxodjaeva X.M  
Mutaxassisligi\_5A50901

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

**Mavzuning dolzarbligi:** Hozirgi paytda barcha ishlab chiqarish korxonalarida erkaklar kostyumining bazaviy asos konstruksiyasini qurayotganda yetakchi sanoat metodikalaridan foydalanish lozimdir. Xorijiy zamonaviy metodikalaridan bo'lgan Ingliz, Nemis, Fransuz, Italiyan metodlarini qo'llab, tahlil qilib, erkaklarga mo'ljallangan namunalarni yaratish.

**Ishning maqsadi va vazifasi:** Mazkur dissertatsiya mavzusidan kelib chiqib, "Pert – o – porte" uslubiga mos bo'lgan erkaklar kiyimini loyihalashda foydalanishi mumkin bo'lgan konstruksiyalash metodikasini tanlash va asoslashdan iboratdir.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti:** Bazaviy va tipaviy konstruksiyalarni o'rganish va O'zbekiston hududining iqlimiy jihatlarni o'rganish, o'rtacha yoshdagi erkaklar konstruksiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib kiyim to'plamini loyihalashdir.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi:** „ Pret – o – porte ” yo'nalishida erkaklar kostyumini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari;

- O'zbekiston hududi iqlim sharoitining o'ziga xos xususiyati;
- Erkaklar kiyimini konstruksiyalash metodikalarini tahlil qilish, yo'nalishi va uslublari;
- Turli xil metodikalar asosida qurilgan konstruksiyalarning parametric jihatidan tahlili;
- Tahlil asosida joylashishi sifatli bo'lgan metodikani asoslash va shu asosida kiyim to'plamining loyihalashini ishlab chiqish;

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyat tatbiqi:** „ Pret - o - porte yo'nalishida ” erkaklar kiyimini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ular asosida libos to'plamini ishlab chiqish mazkur soha tadqiqotlarining kelgusidagi rivojiga ilmiy zamin yaratadi. Tadqiqot natijalarida liboslar to'plami dizayn loyihalashini konsepsiyasini ishlab chiqish, ijodiy manbani tanlash va uslublash o'rtacha yoshdagi erkaklar libos to'plamini yaratishga yordam beradi. Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan fikrlar, „ Pret - o - porte yo'nalishida” erkaklar kostyumini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlarini loyihalashda ishlab chiqilgan yangi uslublar - libos dizayni sohasida, moda festivallarida, ommaviy ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

**Ishning tuzilishi va tarkibi:** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 22 ta paragraf, 19 ta rasm, 33 ta jadval, xulosa, ilova va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 101 betni tashkil etadi.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** Erkaklar ustki kiyimini loyihalashda xorijiy konstruktiv metodlar tahlil qilindi. Izlanish oborilgan "YEMKO SEV", Unifred Aldrich, Fransuz, Italiyan metodikalarini tipaviy qomatda maket bilan tekshirib, tahlil qilindi. Eng kam nuqson "YEMKO SEV" metodikada bo'lib, odam qomatida yaxshi o'tirdi. "YEMKO "SEV" metodikasi ishlab chiqarishga tavsiya qilindi.

Ilmiy rahbar:  
M Magistratura talabasi:

Yunusxodjaeva X. M  
Rashidova M.Sh.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT INSTITUTE OF TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY**

Faculty: "Technology of light industry"

Student of master course: Rashidova M.Sh

Scientific researcher: Yunuskhadjajeva X.M.

Department: "Costume design"

Specialty: 5A150901

Study year: 2015 - 2017

**ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION**

**Actuality of the theme:** At the moment, it is very important to use basic constuctures. In the factories where produces men`s suits. There has own specific information in old SEV and SNIISHP methodics. But, nowadays it has edition in type of figure and peculiarity of fabrics. That`s why, we need calculate differences of foreign methodics such as: English, german, French and Italian methodics. When we work with modern methodics we can see peculiarity of of fabrics, longth of shore in fashion way, places of packets, places of specific things and also characteristics of models shown modern fashion style.

**Aim and tasks of the research:** Theme of the dissertation helps to choose methodic of men`s wers which we can use in our life.

**Object and subject of the research:** To view basical constructions, also, consideriy climate condition in Uzbekistan, **toking** into consider **features** of middle aged men jacket and to design clothes collection.

**Novelty of the work:**

- Characteristics of Uzbekistan climate;
- Analyse of men`s construdction methodics, direstions and methods;
- Choose the best methodic and with collection of wear;

**Significance of the research:** The practical significant of dissertation is that to design peculiar **features** of men`s costumes in trends „Pret – a – porte” used in the field of design, in fashion festivals and in public production.

**Structure of the work:** The dissertation consist: of three parts, general opinions, list of literature and postscripts.

**Results of the work:** Foreign constructive methods are analyzed to design men`s outdoor costumes. "YEMKO SEV" carruet out researches. Unifred Aldrich, French, Italian methods were tested with models at typical figure and analyzed. The least defect was "YEMKO SEV" method, it was suitable to human body "YEMKO SEV" method was recommended to produce.

Scientific researcher:

Yunuskhadjajeva X.M.

Student of master course:

Rashidova M.Sh.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b>	
1.1 Erkaklar kostyumining yaratilish tarixi .....	11
1.2 O'zbekistonning geografik joylashishi, iqlimi va milliy matolarining tahlili ...13	
1.3 “Pret – a – porte” yo'nalishi.....	17
1.4 Syurtukbop materiallar tavsifi.....	19
1.5 YeMKO ”SEV” xususiyati.....	22
1.6 Unifred Aldrich“ingliz” metodikasi.....	29
1.7 “Italiyan” metodikasi.....	30
<b>I bob bo`yicha xulosa</b> .....	31
<b>II BOB. TAJRIBA – SINOV QISMI</b>	
2.1 Yog`och o`ymakorlik naqsh elementlarini milliy matolarni loyihalashda tatbiq etish.....	32
2.2 Erkaklar syurtugi konstruksiyasining o`ziga xos xususiyatlari.....	33
2.3 Tadqiqot qilingan metodlarda qo`llanadigan o`lchamlar tahlili va tizimi.....	35
2.4 Qo`shimchalarning tasnifi va tizimi.....	37
2.5 Olingan natijalar tahlili.....	40
<b>II bob bo`yicha xulosa</b> .....	53
<b>III BOB. LOYIHA QISMI</b>	
3.1 Kolleksiya konsepsiyani ishlab chiqish.....	54
3.2 Erkaklar ustki kiyimlari haqida ma`lumot .....	58
3.3 Mato tanlash va asoslash.....	62
3.4 Tanlangan asosiy taklif – modelni asoslash.....	64
3.5 Konstruksiya usulini tanlash va asoslash.....	68
3.6 Materiallarni sarf me`yorini hisoblash.....	78
3.7 Liboslar to`plamining reklamasini ishlab chiqish (BREND-NAME tanlash)..	80
<b>XULOSA</b> .....	81
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	82



## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi**

Ma`lumki, hozirgi davrda, davlat rahbariyati tomonidan yoshlarni ta`lim – tarbiyasiga juda katta e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, Respublikamiz hududida va ayniqsa xorijiy davlatlarda O`zbekistonning madaniy – ma`rifiy tarixi, merosini targ`ib qilish, ajdodlarimiz tomonidan erishilgan yutuqlarning hozirgi zamon ta`lim – tarbiyasidagi o`rniga juda katta ahamiyat berilmoqda. Shu yo`nalishda, ma`lum darajada ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Bunga misol qilib, erkaklarga mo`ljallangan namunalar kolleksiyasini yaratish shular jumlasidandir. Hozirgi paytda barcha ishlab chiqarish korxonalarida erkaklar kostyumining bazaviy asos konstruksiyasi qurayotganda yetakchi sanoat metodikalaridan foydalanish lozimdir. Oldin foydalangan SEV, SNIISHP metodikalarining o`ziga xos ma'lumotlari bor. Lekin, hozirgi kunda o`tgan 20 - 30 yil ichida tipaviy qomatlar, material xususiyatlari o`zgargan. Shuni inobatga olib, xorijiy zamonaviy metodikalaridan bo`lgan Ingliz, Nemis, Fransuz, Italyan metodlarini qo`llab, tahlil qilib chiqishimiz zarur bo`ladi. Oldingi YeMKO SEV metodikada zamonaviy moda yo`nalishi, yelka balandligi, yelka kengligi, buyum uzunligi, material xususiyatlari boshqa edi. Hozirgi zamonaviy metodikalar bilan tanishib chiqqanimizda material xususiyatlari, zamonaviy moda yo`nalishlari inobatga olinib, yoqalarning uzunligi, belgilangan vitochkalarning joylashishi, model xususiyatlari bu yerda zamonaviy moda yo`nalishiga mos qilingan.

Davlat rahbarining 2016 - yil 21 - dekabrda "2017 - 2019" yillarda to`qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari dasturi to`g`risidagi qarori soha rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Mamlakatimizda 2017 - 2018 yillarda yengil sanoatni rivojlantirish dasturi doirasida qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. "Asaka" banki, "Ipoteka" bank va "Aloqa" banki tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar to`qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, yetishtirilayotgan

paxta tolasini hududning o`zida qayta ishlash hajmini kengaytirish va aholini sifatli kiyim - kechak mahsulotlari bilan ta`minlashga hizmat qiladi.

“Yangilikka intilib yashash iqtisodiyotimiz taraqqiyotining muhim omilidir. Bugun horijiy bozorlarida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarga talab ortib bormoqda. Bu iqtisodiyotimiz tobora yuksalib borayotganida dalolat beradi. Viloyatlarda amalga oshirilayotgan loyihalar iqtisodiy samaradorlik bilan birga eksport salohiyatini yuksaltirish, O`zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jahon bozorida haridorgizligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi”, deb prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytib o`tganlar [1].

2017 – 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo`nalishlari ishlab chiqildi. Bular jumlasiga: Davlat va jamiyatni takomillashtirish va sud huquqi tizimini yanada isloh qilish; Iqtisodni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; Ijtimoiy sohani rivojlantirish; Xavfsizlik millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni taminlash, chuqur o`ylangan o`zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish. Yaratilayotgan qulay shart - sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlarga va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining hususiy tadbirkorlik va yengil sanoatni rivojlanirishga yo`naltirilgan 5 - oktabr 2016 - yildagi farmonlariga binoan mavzuning dolzarbligi kelib chiqadi [2].

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov so`zi bilan aytganda, “O`tmishni biladigan, ota - bobolaridan ancha oldingi davrlarga oid ma`lumotlarni xotirasida saqlagan kishilar hayotdan asta-sekin o`tib bormoqda. Bizning vazifamiz ana shunday kishilardan ko`rgan - bilganlarini, eshitganlarini so`rab-surishtirib yozib qolish, ular asosida unitilgan yoki unitilayotgan xalq kiyimlarini aniqlash, ular haqida kelgusi avlodga ma`lumot qoldirishdan iboratdir” [3].

Kiyim – kechaklar o`zbek xalqi tarixi bilan uzviy bog`liq bo`lib, u moddiy – madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o`ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi.

Asosiy maqsadimiz: Mustaqil O`zbekiston Respublikasi xalqiga milliy o`zligini anglatish, uning qadimdan to hozirgi davrgacha bo`lgan an`naviy,

betakror kiyimlarini ko`rsatish, tuman, qishloq va shaharlarda saqlanib kelayotgan farqlarni aks ettirish va ularning davomiyligini anglatishdan iboratdir.

Zamonaviy kiyim murakkab tizimdir. Unga xos konstruksiyaning shakllanish qonuniyatlarini tushunish uchun uzoq o`tmishga bir nazar tashlaylik.

Kiyim hozirgi mukammal ko`rinishiga murakkab bosqichlar orqali yetib kelgan. U odamzod rivojlanishining ilk bosqichlarida iqlim ta'siridan himoya topmoq vositasi sifatida paydo bo`lgan.

Uning keyingi rivoji ishlab chiqarish kuchlariga muvofiq davom etgan.

Kiyim konstruksiyasining ravnaqida bir necha o`ziga xos bosqichlarni ta'kidlash mumkin [4].

Birinchi bosqich - kiyim timsollarining rivojlanishi (hayvon terisi, daraxtlar po'stlog'i hamda bargi, o`simliklar tolali va h.k.). Bu davr yuzlab ming yilliklarni o`z ichiga oladi.

Bu bosqichda eramizdan oldin, V ming yilliklarga qadar kiyim odamni iqlimiy ta'sirlardan muhofaza qilgan. Keyinchalik odam to`qish, ip yigirish va qo`lda mato to`qish san'atini egallagan.

Kiyim ravnaqining ikkinchi bosqichi tanani maxsus to`qilgan mato bo`lagi yordamida o`rash bilan xarakterlanadi [5].

Odam tanasining shakliga mos kiyim bichishga ilk urinishlar sharqda kuzatilgan, lekin bu yerda u o`z rivojini topmagan. O`rta Osiyo kiyim kechaklarining uzluksiz o`zgarishi va rivojlanishi butun Markaziy Osiyo hayoti bilan bog`liq.

O`rta asrda kiyimlar mahalliy iqlimga va xalqlarning urf - odatlariga moslangan, ya'ni kiyimlarda umumiylik, bir xillik kasb etgan.

O`zbek xalqining kiyim - kechaklari juda xilma - xil, rang - barang va jozibalidir. Hamma davrlarda libosga qarab insonning qaysi ijtimoiy toifaga mansubligini bilish mumkin bo`lgan.

Kiyimlarning bichimi, asosan mintaqalar bo`yicha shakllangan. Bichimi bir xilda bo`lsada mato va ranglarini tanlashda hududlar bir - biridan farq qilgan.



**Tadqiqot ob'ekti va predmeti:** bazaviy va tipaviy konstruksiyalarni o`rganish va O`zbekiston hududining iqlimiy jihatlarini o`rganish, o`rta yoshdagi erkaklarning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olib kiyim to`plamini loyihalashdir.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:** Mazkur dissertatsiya mavzusidan kelib chiqib, "Pert – a – porte" uslubiga mos bo`lgan erkaklar kiyimini loyihalashda foydalanishi mumkin bo`lgan konstruksiyalash metodikasini tanlash va asoslashdan iboratdir.

### **Ilmiy yangiligi:**

- „ Pret – a – porte ” yo`nalishida erkaklar kostyumini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan;
- O`zbekiston hududining iqlimiy jihatlari o`rganilgan;
- o`rta yoshdagi erkaklar kiyimining yo`nalish va uslublari aniqlanib, tahlil etilgan;
- dizaynerlar ijodi o`rganilgan;
- o`rta yoshdagi erkaklar pidjagi uchun tanlangan matolarni fizik – mexanik xususiyatlari tahlil qilingan;
- o`rta yoshdagi erkaklar pidjagi matosiga qo`yilgan talablari tahlil qilingan;
- ijodiy manbaa tanlanib, uslublashtirilgan;
- „ Pret – a – porte ” yo`nalishida erkaklar kostyumini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olib libos to`plami loyihasi ishlab chiqilgan;

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** „ Pret – a – porte yo`nalishida” erkaklar kostyumini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlarini loyihalashda ishlab chiqilgan yangi uslublar – libos dizayni sohasida, moda festivallarida, ommaviy ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha qisqacha adabiyotlar tahlili:** „ Pret - a - porte yo`nalishida ” erkaklar kostyumini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish bo`yicha ma`lum izlanish va tadqiqotlar olib borilgani, tadqiqotning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi. O`rta yoshdagi erkaklar kiyimlarining tuzilishi bo`yicha, foydalaniladigan matolari, shakli, turi, bichimi, ranglar bo`yicha yechimi, bezaklari va h.k. Shuningdek, fizik, psixologik va fiziologik o`ziga xos

xususiyatlarining rivojlanishi ham har xil bo`ladi. O`rta yoshdagi erkaklarning kiyimida modaning rivojlanishi asosan, ularning xohish – istaklari asosida amalga oshiriladi. Unda jadal o`zgarib boruvchi shakllar, siluet va hajmlar, shuningdek, aksessuarlarning ishlatilishi kuzatiladi.

Bu yo`nalishda muammo yechimini hal etish bo`yicha bir qator ishlarni amalga oshirgan: E. B. Koblyakova, E. A. Yanchevskaya, X.X. Kamilova, B. S. Sakulin, E. K. Amirova, O. B. Sakulina, A. T. Truxanova, A. Ya. Skovronskiy, A.A. Martinova, T. B. Kozlova, Salamatina va boshqa adabiyotlar o`rganilgan.

**Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi:** qiyosiy tahlil, sistemali analiz va sintez, analogiya va umumlashtirish, tajriba – sinov, tasniflash, uslublash, konstruktiv – texnologik.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** „ Pret - a – porte yo`nalishida ” erkaklar kiyimini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ular asosida libos to`plamini ishlab chiqish mazkur soha tadqiqotlarining kelgusidagi rivojiga ilmiy zamin yaratadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarida liboslar to`plami dizayn loyahasini konsepsiyasini ishlab chiqish, ijodiy manbaani tanlash va uslublash o`rta yoshdagi erkaklar kiyim to`plamini yaratishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan fikrlar, „ Pret – a – porte yo`nalishida” erkaklar kostyumini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlarini loyihalashda ishlab chiqilgan yangi uslublar – libos dizayni sohasida, moda festivallarida, ommaviy ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi:** Tadqiqot natijalari uchta magistrlik ilmiy maqolalari to`plamida, “Toshkent moda haftaligi” ning “Performance” gala festivalidanamoyish etilgan.

Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 22 ta paragraf, 19 ta rasm, 33 ta jadval, xulosa, ilova va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 101 betni tashkil etadi.

## **I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI**

### **1.1 Erkaklar kostyumining yaratilish tarixi**

Zamonaviy kiyim murakkab tizimdir. Unga xos konstruksiyaning shakllanish qonuniyatlarini tushunish uchun uzoq o'tmishga murojaat qiladigan bo'lsak, kiyim hozirgi mukammal ko'rinishiga murakkab bosqichlar orqali yetib kelgan. U odamzod rivojlanishining ilk bosqichlarida iqlim ta'siridan himoya topmoq vositasi sifatida paydo bo'lgan.

Odam tanasining shakliga mos kiyim bichishga ilk urinishlar sharqda kuzatilgan, lekin bu yerda u o'z rivojini topmagan. O'rta Osiyo kiyim kechaklarining uzluksiz o'zgarishi va rivojlanishi butun Markaziy Osiyo hayoti bilan bog'liq.

O'rta asrda kiyimlar mahalliy iqlimga va xalqlarning urf-odatlariga moslangan, ya'ni kiyimlarda umumiylik, bir xillik kasb etgan.

O'zbek xalqining kiyim - kechaklari juda xilma - xil, rang - barang va jozibalidir. Hamma davrlarda libosga qarab insonning qaysi ijtimoiy toifaga mansubligini bilish mumkin bo'lgan.

Kiyimlarning bichimi asosan mintaqalar bo'yicha shakillangan. Bichimi bir xilda bo'lsada mato va ranglarini tanlashda regionlar bir - biridan farq qilgan.

XIX asrning 1980 - 1990 yillarigacha ustki kiyimlarda asosan, to'g'ri chiziqli bichiq va "rum" bichig'i saqlanib kelingan, yoqasi yaxtak yoqa, etagining yoni yirtmoch qilingan. 1980 - 1990 yillardan boshlab rus va tatar kiyimlari ta'sirida yuqori tabaqa kiyimlarning siluetida o'zgarishlar paydo bo'lib, bichig'i murakkablashdi [6].

XIII asrda kiyimga yeng qo'ndirila boshlandi, XIV asrda kiyimning oldi ochilib, yoqalar o'rnatildi, XVII asrda esa kiyimga cho'ntaklar o'rnatildi.

XIV - XV asrlarda ko'ylak belidan ko'ndalang tepa va etak qismlariga bo'lindi, kiyimning yangi ko'rinishi – kostyum paydo bo'ldi. XVI asrgacha imtiyozli tabaqalarning kiyimi sifatida saqlanib keldi.

Birinchi bichish tizimini 1818 yilda fransuz Mishel ixtiro qildi. XIX asrning oxirida yaratilgan tikuv mashinalari mehnat unumdorligini oshirib, kiyim detallarining shaklini murakkablashtirishga yordam berdi.

1928 yilda Gabriel Shanel ayollar modasiga erkaklar tipidagi kostyum kiritdi. 1930 yillarda butun dunyo bo'yicha kiyimning ommaviy tarzda ishlab chiqarilishi boshlandi. Ikkinchi jahon urishi yillarida kiyimning tabiiy shakli o'zgarib "harbiylashgandek" bo'ldi.

1950 - 1960 yillardan boshlab yangi xususiyatli materiallar assortimenti kiyim konstruksiyasiga va shakliga katta o'zgarishlar kiritildi.

1970 - 1980 yillarda kiyim silueti va shakli murakkablashib, uning konstruktiv tuzulishiga ko'proq ahamiyat berildi [7].

Bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy kiyimlari XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Erkaklarning milliy liboslari yelka, bel va bosh kiyimlaridan iborat. Ichki libosga yengsiz mullavacha ko'ylak, yaxtak va ishton kirgan.

Hozirgi zamon kiyimlarida milliy an'analar bilan yevropa uslubi bog'lanib ketgan. Chunki milliy kiyimlariniz bizning hayot tarzimizga va iqlimimizga moslangan, shu bois, erkak va ayollarning kiyimlarida ham an'anaviy libosar o'z davomiyligini saqlab qolmoqda.

Shunday qilib, avval insonni iqlimiy ta'sirlardan muhofaz qilish uchun yaratilgan kiyimning shakli va xillari keyinchalik turli tarixiy o'zgarishlar, ijtimoiy hamda iqtisodiy sharoitlar, milliy xususiyatlar va jamiyatdagi estetik tasavvur evolyutsiyasi ta'sir ostida o'zgarib, u amaliy san'at obyektiga aylandi [8].

## **1.2 O'zbekistonning geografik joylashishi, iqlimi va milliy matolarining tahlili**

Yoz kunlari odam organizmiga yuqori harorat ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo Respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo regioniga taalluqli iqlimiy, gidrologik va ekologik muamolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur hududga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlimiy xaritalar komplekti tuzilgan, turli iqlimiy va bioiqlimiy ta'riflar, atlas hamda ma'lumotnomalar mavjud. Regionga xos atmosfera jarayonlarining xususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar o'tkazilmoqda [9].



**1.1-rasm O'zbekistonning geografik joylashishi**

O'zbekiston Respublikasi Yevro Osiyo kontinentining markaziy qismida shimoliy kenglikning o'ttiz yettinchi – qirq beshinchi graduslari va sharqiy uzunliklarning ellik oltinchi hamda yetmish uchinchi graduslari orasida joylashgan; uning umumiy maydoni 447,4 ming km<sup>2</sup> ga teng ( 1- rasm ).

O'zbekiston shimolda va g'arbda Qozog'iston bilan, janubda Turkmaniston hamda Afg'oniston, sharqda esa Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaradoshdir.

Respublika teng ikki qismga bo'linadi: 78,8 % - tekisliklar, qolgan 21,2 % - tog'lar va tog'lararo cho'nqirlar.

Mazkur hududga turli havo oqimlari bemalol kira oladi. Shimoldan, g'arbiy shimoldan va g'arbdan keng tekisliklarga o'zgargan atlantik va sovuq atriqa havo massalari kirib keladi. Qishda issiq sektorlardan janubiy siklonlar keltiradigan tropik havo massalari orqali jadal holda kunlar birdan isiy boshlaydi.

Respublika hududi baland frontal oqimlar mintaqasida joylashgan. Yilning sovuq yarmida bu oqimning harakati tezlashadi, natijada, siklonlar harakati ham kuchayadi. Ular Markaziy Osiyoni kesib o'tganda ob-havo keskin o'zgarib turadi.

Iqlimiy o'zgarishlar respublika hududining iqlimiy xarakteristikasiga, suv balansiga va suv resurslariga ta'sir etadi.

Respublikaning tog'li qismida muzliklar degradatsiyasi va ular maydonining qisqarishi kuzatilmoqda. Ma'lumotlar tahlili tog'li daryolar basseynida qor qatlamlari yil sayin kamayishini ko'rsatdi.

Hududning tekislik qismida havo yog'inlarining yillik majmui biroz oshgan. Tog'li va tog'lar etagida statistik jihatdan ahamiyatli trendlar aniqlanmagan.

Yuqori haroratli va intensiv quyosh radiatsiyalari oqimining ta'sirini kamaytiradigan, o'z vaqtida kiyim ostidan organizm hosil qiladigan ter bug'larini va karbonat angidridni tashqariga chiqaradigan kiyim paketining qobilyati muhim ahamiyatga molik [10].

Har jihatdan qulay kiyim yaratish uchun kiyim ostidagi mikroiqlimga, kiyimning odam organizm ta'siriga oid miqdoriy bog'lanishlarni aniqlash kerak.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlari, hatto 20 - 30 yillarigacha ham O'zbekiston qishloq aholisi kiyim - kechaklari uchun ishlatilib kelingan matolar orasida uy sharoitida tayyorlangan mahsulotlar salmoqli o'rin egallagan. Chetdan, xususan Rossiyadan keltiriladigan fabrika mahsulotlari g'oyatda qimmat bo'lish bilan birga, ular o'lkaning hamma joylariga birday tarqatilmagan edi. Bu esa mazkur davrlarda o'lkada hali kapitalistik ishlab chiqarishning o'smaganligidan darak berardi [11].

Uy sharoitida ip, jun, pilla, teri va boshqa narsalardan mato tayyorlash O'zbekistonda juda qadimdan mavjud bo'lgan. Ipakli va yarim ipakli matolar ishlab chiqarish qisman cheklangan edi. Bu soha asosan ma'lum hududlarda

to'plangan bo'lib, ipakli va yarim ipakli matolardan yuqori sinf vakillarigina foydalanishgan. Chunonchi, ipakli va yarim ipakli matolar ishlab chiqarish Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari markazlarida, ularga qarashli yirik shahar va qishloqlarda yo'lga qo'yilgan edi. Oddiy mehnatkashlar esa asosan ip - gazlama matolardan foydalangan. Oddiy matolar kundalik yurish - turish uchun, ipakli va yarim ipakli matolardan esa to'y - tantana, bayramlarda kiyish uchun kiyimlar tikilgan.

Ip juda qadimdan mavjud bo'lgan charx bilan yigirilgan. Yigirilgan iplar naychalarga o'ralib, kalava qilingan yoki dumaloq, to'p - to'p qilib qo'yilgan. Ayrim joylarda aholi paxtani tozalab sotgan bo'lsa, boshqa joylarda paxta ip qilib yigirilib, kalava shaklida bozorlarda sotilgan. Ularni aksariyat to'quvchilar sotib olgan. Mutaxasislarning fikricha, charx juda qadimiy bo'lish bilan birga, keng tarqalgan, hamma joyda ham shakli va ishlatish jarayoni bir xil bo'lgan asbobdir.

O'zbekistonda pillakashlik, ipak qurti boqish va ipak yetkazish ham qadimdan keng tarqalgan. Pillani pishirish va undan ipak olish jarayonlari ancha murakkab, ko'p ishchi qo'lini talab qiladigan jarayon bo'lgan [12].

Bunda bir nechta katta - kichik qozon, katta charx yoki dev charx, kichik charx yoki bacha charx kabi charxlar ishlatilgan. Ustalar pilla qaynab turgan qozondan maxsus pillacho'plar yordamida ipak chiqarishganlar, ularning yordamchilari esa ipakni avval katta charxga, so'ng kichik charxga o'rashgan. Marg'ilon, Xo'jand, Buxoro, Shahrisabz, Kitob kabi o'nlab shaharlarda maxsus pillakashlik ustaxonalari bo'lgan.

O'tmishda pillakashlik bilan ko'proq xotin - qizlar shug'ullangan. Lekin pillakashlikning keyingi taraqqiyotida bu ish erkaklar qo'lga o'tadi, ustaxonalarda ishchi yollab ishlatish rasm bo'la boshlaydi.

Toshkent kosiblari bo'z yoki karboz (oddiy bo'yalmagan ip gazlama), bosma (ko'proq qizil tUSDagi gulli bo'z), olacha (bo'yalgan ipdan to'qilgan yo'l - yo'l ip gazlama), chopon tikishda qo'llaniladigan yo'l - yo'l nim shoyi matolar to'qishga mohir edilar. Farg'ona, Marg'ilon, Namangan, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda an'anaviy o'zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam,

banoras, adras) gazlamalar to`qilib, ulardan tikilgan turfa kiyimlar o`ziga to`qroq, boy – badavlat kishilar orasida rasm bo`lgan. Quyida mana shu matolarning ayrimlariga bir – ikki og`iz ta`rif berib o`tamiz:

Beqasam – yo`l – yo`l gazmol bo`lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to`nlar, ko`rpa – ko`rpachalar tikishda foydalanilgan (1.2rasm).



**1.2– rasm. Beqasam**

Banoras – beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo`lmish paranji tikilgan.

Paripashsha – beqasamdan qalinroq matodirki, u paranji, shuningdek, chopon tikishda ishlatilgan.

Adras – abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmoldir. Shuningdek, kanovuz, shoyi, xonatlas, guldor kimxob, duxoba kabilar ham keng qo`llangan.

Shoyi va nimshoyi matolar – beqasam, adras, yakro`yo, katak shoyi, tovlanma shoyi, abrshoyi va hokazolarga turli – tuman gul solingan [13].

Ma`lumki, o`lkamiz xalqlarining qadimdan mashg`ul bo`lib kelgan ish sohalaridan biri chorvachilikdir. Chorva mahsulotlari bo`lmish jun, teridan ko`plab xalq iste`mol buyumlari tayyorlangan. Chunonchi, jundan chakmon, chalbar, gilam, polos, xurjun, xalta, qora uylar uchun turli - tuman bog`ichlar tayyorlangan. Teridan esa bosh, oyoq va ustki kiyimlar, kamar hamda boshqa buyumlar qilingan. Echki tivitdan, tuya hamda qo`y junlaridan salla, fo`ta, vazra va boshqa buyumlar



tayyorlangan. Qo'y, ecki, mol, ot, tuya va eshak terisidan qilingan charmlardan turli oyoq va bosh kiyimlari, kamar, uy-ro'zg'or buyumlari, xo'jalik asboblari qilingan. Mazkur charmlar saur, shagren, kemuxt deb nomlangan. Bulardan bulg'ori qayroqi, takaki, xakkari, nog'ayi kabi etiklar juda mashhur bo'lgan. Lekin jun va jundan narsa tayyorlash sohasi hunarmandchilikning boshqa turlariga o'xshab alohida hunarmandchilik tarmog'i bo'lib ajralib chiqmagan. Iplarni bo'yash uchun eng oldin ular yaxshilab yuvilib yog'i va boshqa kirlari ketkazilgan. So'ng ip yoki ipak ishqorli suvda qaynatilib, oqar suvda chayilgan. Ipakning suvi qurigandan keyin yana rangli qozonga solib rang berilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'zbekiston to'qimachilik san'ati va dekorativ amaliy san'ati ham keng rivojlangan edi. An'anaviy o'zbek shoyilari (kaunas, shoyi, xonatlas), nimshoyilar ( beqasam, banoras, parpasha, adras) Buxoro, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda ishlab chiqarilardi. O'rta Osiyo aslzodalari shu gazmollardan kiyim kiyishardi. Kambag'al aholining kiyimi asosan ip matolardan (bo'z, olacha, susi, janda) bo'lardi.

O'zbek milliy liboslar toplami o'zining badiiy elementi bilan ajralib turadi. Samarqand, Buxaro, Xorazm, Toshkent va Farg'ona vodiysida tarqalgan atlas va adrasdan ko'ylaklar, beqasamdan erkak va ayollar cho'ponlari, turli jaketlar e'tiborga loyiq [14].

### **1.3. “Pret – a – porte” yo'nalishi**

Bugungi kunda moda sohasida bir necha yo'nalishlar jahon sahnasida hukm surmoqda, bunga “pret – a – porte” yo'nalishini misol qilib olishimiz mumkin.

“Pret – a - porte” so'zi, aslida fransuz so'zidan olingan bo'lib, mashhur dizaynerlar tamonidan ommaviy ishlab chiqarishga tayyorlanadigan liboslar sirasi ma'nosini anglatadi. Ko'pgina tahlil natijalari asosida shuni ta'kidlash lozimki, ushbu tushuncha XX asrning aynan 50 – yillarida paydo bo'lgan. Hozirgi kunga kelib ham u o'zining hukmronligini boshqa yo'nalishlarga bo'shatib bermaganligini guvohi bo'lishimiz mumkin [15].

Ushbu yo'nalishda ishlab chiqariladigan liboslar to'plami mashhur Moda uylarining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Shuningdek, bu yo'nalishda tikiladigan barcha kiyimlar sotish uchun savdo do'konlariga chiqarilganligi sababli standart o'chamlarda tikilishi kuzatiladi. "Pret – a - porte" yo'nalishida ishlovchi dizaynerlarning bosh g'oyasi, tanlangan mato va model tasvirlari orqali ushbu yo'nalishni bir necha darajaga bo'lish mumkin. Jumladan, "pret - a - porte de lyuks" darajasiga katta namoyishlarda ishtirok etuvchi, bir muncha qimmatbaxo matolardan tikilgan libos namunalari kiradi. Bunday liboslarda eng zamonaviy urfdagi bichimlarni kuzatish bilan birga, ularni ko'p hollarda kundalik kiyishga tavsiya etilmaydi. Ushbu yo'nalishda ishlovchi bir qator mashhur dizaynerlarni misol tariqasida keltirish mumkin, jumladan: Gucci, Prada, Vuitton, Chanel, Karan, Versace, Dior, YSL, Valentino, Fendi, Burberry, Kenzo, Ralph Lauren, Christian Lacroix, Emmanuel Ungaro, Vivienne Westwood, John Galliano, Oscar de la Renta, Halston, Marchesa va boshqalar.

Aynan ikkinchi darajadagi "pret – a - porte" yo'nalishidagi liboslar ancha arzon narxda bo'lib, kundalik hayotda kiyishga mo'ljallangandir. Ushbu yo'nalishdagi liboslarni tikishni dizayner tavsiyasiga ko'ra katta fabrikalarda amalga oshiriladi. Ayrim hollarda "pret - a - porte de lyuks" yo'nalishi bo'yicha loyihalashtirilgan murakkab libos namunalari "Haute couture" yo'nalishida yaratilgan liboslar bilan taqqoslanadi [16].

Ma'lumki, liboslar doimiy ravishda mavsumga xos bo'lgan kundalik, chiroyli, qulay va arzon bo'lishi talab qilinadi. Yillar o'tgan sari ishlab chiqaruvchilar aynan shu yo'nalishdagi liboslarni ommaviy tarzda ishlab chiqarish keng ma'noda daromadning yaxshilanishiga olib kelishini anglab, liboslar yarata boshlashdi. Shuningdek, aynan "pret - a - porte" yo'nalishidagi liboslarda dizaynerlar sun'iy va tabiiy matolardan foydalanishadi.

Bugungi kunga kelib esa, bu yo'nalishdagi liboslarni qat'iy biznesga aylantirishga qaror qilishgan, ayrim hollarda moda ijodkorlik asosida emas, balki uddaburon marketingini keltirish mumkin: Ralf Lauren, Calvin Klein, Donna Karan. Zamonaviy moda industriyasi oldindan bashorat qilish va ma'lum reja

asosida yo'lga qo'yilmoqda. Uslublarning o'zgarib borishi jadal barmoqda. Moda sohasiga shunday bir urfni kiritish kerakki, uning hissiyotlari jamiyatni befarq qoldirmasin. Ammo bugungi modaning chegarasi qolmadi. Yangi texnologiyalarning yangi shakllarida kuzatilmoqda.

Umumiy qilib aytganda, bu borada sezilarli darajada zamonaviy urfdagi liboslar to'plamini yaratishda prinsiplarning, yangi usul va vositalarning, moda san'atida dizaynerning asosiy maqsad va vazifasining ahamiyati o'zgarib borishi kuzatilmoqda.

Klassik uslubidagi pidjaklarning detallari – qopqoqli qirqma cho'ntaklar, listochkali ko'krak cho'ntagi, yoqa, bort, adip qaytarmasi, qopqoq pidjak etagi bo'ylab bezak baxyaqator yuritilishi mumkin. Pidjaklar astar bilan ishlov beriladi. Ort bo'lak ikki qismdan iborat bo'lib, o'rta yoki yon choklarining davomida kesim bilan ishlov berilishi mumkin. Klassik uslubdagi pidjaklarni tikish uchun asosan qimmat gazlamalar ishlatiladi.

Sport uslubidagi pidjaklarda qirqma cho'ntaklardan tashqari qoplama cho'ntaklar ham qo'llaniladi. Old va ort bo'laklarida koketkalar, taxlamalarga ishlov berilishi mumkin. Pidjakalar pogon, belbog', xlyastiklar bilan bezatiladi. Pidjak yon choklarida yoki ort bo'lak o'rta chokida kesimga ishlov beriladi. Yoqa, adip qaytarmasi, bort ziylari bo'ylab bezak baxyaqator yuritiladi [17].

#### **1.4. Erkaklar kostyumi uchun qo'llaniladigan materiallar tavsifi**

Erkaklar kostyumi ko'p qavatli buyum bo'lganligi sababli, uni tikish uchun, avralik gazlamadan tashqari, astarlik va qotirmalik gazlamalar ham qo'llaniladi. Erkaklar kostyumini tikish uchun asosan jun va yarimjun kostyumlik gazlamalar qo'llaniladi. Bundan tashqari poliefir iplardan to'qilgan, tukli va shakl saqlovchi trikotaj polotnolar ishlatilishi mumkin.

Kostyumlik materiallarning sifatini baholash, tikuvchilik sanoatida ishlov berish rejimlarini belgilash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash lozim: yuza zichligi, qalinligi, havo o'tkazuvchanligi, uzilish kuchi, kirishuvchanligi,

ishqalanishga va yemirilishga chidamliligi, g`ijimlanmasligi. Bundan tashqari kostyumlik materiallar ishqalanishga, dazmollashga, kimyoviy tozalashga, ter ta`siriga chidamli bo`lishlari lozim [18].

Yarim jun kamvol - gazlamalar erkaklar kostyumlik gazlamalarining asosiy guruhini tashkil qiladilar. Kostyumlik gazlamalarning barchasida tanda iplariga, ba`zilarida arqoq turkumiga ham 15,7 teks x 2 – 31,3 teks x 2 yo`g`onlikda pishitilgan iplar qo`llaniladi. Yarim junli gazlamalarni ishlab chiqarganda jun iplariga 35% viskoza yoki kapron kompleks iplari pishitilib qo`shiladi. Yuza zichligi 220 – 340 g/m<sup>2</sup>, chiziqli to`ldirilishi 70 – 90 % va ba`zi yuqori sifatli lari 110% gacha bo`ladi. Pardoatlanishiga ko`ra kamvol kostyumlik gazlamalar sidirg`a rangli va turli rangdagi ipdan to`qilgan (chipor) turlariga bo`linadi. Sidirg`a rangli gazlamalarning assortimenti uncha katta emas. Sof junli sidirg`a rangli gazlamalar jumlasiga boston va kreplarni kiritish mumkin. Bu yuqori sifatli va asl gazlamalardir. Boston hosila sarja o`rilishida chiqariladi. Yuza zichligi 320 – 340 g/m<sup>2</sup>.

Sheviot – tashqi ko`rinishi bostonga o`xshab, lekin paxta tolali pishitib qo`shilgan yarim jun iplardan to`qiladi.

Dioganal – aralash pishitilgan ipdan olingan dioganal o`rilishidagi gazlama. Bu ikkala gazlama yetarli darajada qattiq va turg`un tuzilishli.

Chipor kostyumlik gazlamalarning turlari ancha ko`p. Ular sof junli va yarim junli bo`ladi. Yuqori sifatli sof junli gazlamalar guruhiga har xil nomli trikolar kiradi. Trikolar turli ranglarga bo`yalgan pishitilgan iplardan yo`l – yo`l naqshli turli aralash o`rilishda to`qiladi. Yarim junli gazlamalar jumlasiga ham har xil trikolar kiradi. Ular sof junli trikoldan tashqi ko`rinishi bilan hamda kataklar va yo`llarining o`lchovlari bilan farqlanadi. Yarim junli trikolar tolali tarkibida 20 – 85% jun, 20 – 60% lavsan tolalari bo`ladi. Bu guruhga yana “kostyumlik gazlama” deb nomlanuvchi gazlamalar kiradi. Tarkibida 60% lavsan yoki nitron tolali, viskoza kompleks ipi, kapron shakldor iplari bo`ladi. O`rilishlari - mayda gulli.

Paxta tolali kostyumlik gazlamalar ichiga zich to`qilgan, ishqalanishiga chidamli va mustahkam gazlamalar kiradi. Ularning ichida sidirg`a rangli va turli xil rangli iplardan to`qilgan gazlamalar ko`p miqdorini tashkil qiladi. Paxta tolali kostyumlik gazlamalar assortimentiga triko, velvet, koverkot, jins gazlamalar kiradi. Bu gazlamalarning yuza zichligi 190 – 350 g/m<sup>2</sup>.

Triko gazlamaning afzalligi shuki u yo`l – yo`l yoki qator ko`rinishda bo`ladi. Bu ko`rinish turli rangli iplarni ishlatilish yoki aralash o`rilishlarda to`qilishi orqali hosil qilinadi.

Jins gazlamalari sarja o`rilishida tandasida rangli iplardan, arqog`ida esa xom iplardan to`qiladi. Bu gazlamaning g`ijimlanmasligini va kiyimning shaklini saqlash xususiyatini ta`minlash uchun unga yuvilib ketmaydigan appret bilan ishlov beriladi. Ayrim artikullarning tolali tarkibiga lavsan tolasi qo`shiladi.

Velvetonning yuza zichligi 370 – 400 g/m<sup>2</sup>. Tandasida pishitilgan ip, arqog`ida esa yakka iplar ishlatiladi.

Zamsha gazlamasi movut va velvetondan tukining turi bilan farqlanadi. Uning tuki qisqa va qattiq presslangan holda bo`ladi. Yuza zichligi 405 – 415 g/m<sup>2</sup> [19].

Qo`llaniladigan astarlik gazlamalarning tolali tarkibi quyidagicha: tandasi va arqog`ida viskoza iplari; tandasida viskoza, arqog`ida atsetat iplari; tandasi va arqog`ida kapron iplari; tandasida viskoza, arqog`ida paxta tolasi; tandasida viskoza iplari, arqog`ida viskoza tolasi.

Pidjakka kerakli shakl berish, kiyish muddatini uzaytirish va tashqi ko`rinishini yaxshilash uchun qotirma ishlatiladi. Pidjak old bo`lagi, ostki yoqa, yeng uchi, adip, qopqoq, listochka, yeng va yoqa o`mizlariga yelim qotirma qo`yiladi.

Pidjaklarni tikishda qotirma sifatida xom surp, kolenkor, noto`qima material, shuningdek yelimli gazlama, qotadigan modda shimdirilgan qotirma gazlama, o`rgimchak uya shaklidagi yelim material, yelim qoplangan noto`qima material ishlatiladi.

Erkaklar pidjagining bort qotirmasi uchun yuza zichligi  $260 - 300 \text{ g/m}^2$  sof zig`ir tolali qotirmalik material; yuza zichligi  $240 - 260 \text{ g/m}^2$  tashkil qilgan yarim zig`ir tolali bort qotirmasida 67% zig`ir tolasi va 33% lavsan tolasi aralashmasidan olingan 69 va 83 teksli iplardan ishlab chiqilgan qotirmalik material qo`llaniladi. Ayrim qotirmalik materiallarning sirti yelimlangan bo`ladi. Qattiqligini oshirish uchun bort qotirmalik matolar appretlanadi. Kirishishini kamaytirish uchun tayyor gazlamalarda kam kirishtiradigan maxsus pardozlash beriladi.

Yelka tagliklari uchun yuza zichligi  $330 \text{ g/m}^2$  bo`lgan sof zig`ir tolali poliamid yelimi qoplangan bot qotirmalik gazlamasi; yuza zichligi  $160 \text{ g/m}^2$  bo`lgan kimyoviy tolalardan noto`qima matosi qo`llaniladi. Yuqori yelka tagliklari vatin yoki isituvchi qatlam uchun qo`llanilgan matodan bichiladi [20].

Ma'lum konstruksiyalash metodlari yordamida tuziladigan bazaviy chizmalar aholining razmerli tipologiyasiga oid tipaviy qomatlar o`lchamlarida asoslangan. Konstruksiyalash uslublari o`zaro jiddiy farqlansa ham, ularga quyidagi umumiy bosqichlar xosdir: detallar yoyilmasini tuzish uchun zarur bo`lgan dastlabki ma'lumotlar, hisoblash xususiyatlari va asosiy detallar konstruksiyasini qurish. Bazaviy asosni konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar tariqasida odam tanasining tuzilishini ifodalaydigan tipaviy qomatlarga oid bazis o`lchamlarining majmui qabul qilingan. Gazlama xiliga, kiyim turi va siluetiga bog`liq holda tanlanadigan asosiy aylanali o`lchamlarning qo`shimchalari kiyim shakli va silueti to`g`risida ma'lumot beradi [21].

Erkaklar kiyimi assortimentining rivojlanishi asosi sifatida, kiyimning komplektligi; turli assortimentli yangi matolar va boshqa xom – ashyolar; komplektning alohida predmetlarining yangicha uslubdagi yechimi – “anorak” uslubidagi kurtkalar (boshqa kiyiladigan kopyushonli); “parka”, “aviator”, enli poyasli, qaviqli, issiq astarli, astarsiz ikki taraflamali, ikki matoli kabi kalta kurtkalar.

Erkaklar ustki yelka kiyimi, ayollar ustki kiyimi singari, ko`plab hollarda ko`p qavatlilik ustki mato, astar va astarlik detallardan tashkil topgan. Bir vaqtning o`zida, eng kamida odamga kiydirilgan uchinchi qavat sanaladi.

80 – yillarga xos erkaklar kiyimi buyumlarning bir muncha hajmli kattalashishi, asosan sport uslubiga xosligi, shu jumladan yumshoq shakllar yaxlitligida hosil bo`ladi. Yumshoq matolardan foydalanish va BI ning kam ishlatilishi hajmli shaklning taassurotini kamaytiradi [22]. Ushbu adabiyotda dissertatsiya mavzusiga qisman ma`lumot olindi.

Erkaklar kiyimining konstruktiv tuzilishi deyarli doimiy tursada, ular o`zgarasdan qolmaydi. Ularga texnologiyalarning rivojlanishi va yangi materiallarning ishlab chiqarilishi, modaning yangi takliflari va liboslarning umuman rivojlanishi ta`sir o`tkazadi. Konstruktorning vazifasini bir muncha yengillashtirish uchun tipaviy konstruksiyalardan foydalaniladi. Erkaklarning ko`plab kiyim modellari uncha ko`p bo`lmagan tipoviy konstruksiyalar yordamida yaratiladi.

Erkaklar kiyimi tipaviy konstruksiyaning o`zgarishlari kamdan – kam va asta – sekinlik bilan sodir bo`ladi. Shuning uchun yangi modellarni yaratishda tipaviy konstruksiyadan foydalaniladi va ko`proq estetik ko`rinishga ahamiyat beriladi. Tipaviy konstruksiya bir muncha kamchiqim bo`lib, texnologik ishlovda unifikatsiya uchun qulaydir.

Erkaklar kiyimida tipaviy konstruksiya turli – tumanligi bilan alohida ajralib turmaydi. Zamonaviy tipaviy konstruksiya erkaklarniki, palto va pidjak.

Erkaklar ustki kiyimi ko`proq yangi turdagi materiallardan – shaklga chidamli trikotaj polotnolar, dublirinlangan materiallar, tabiiy va sun`iy charm, zamsha, vellyur, mo`yna, etilen qoplamali matolardan tikiladi. Kimyoviy tolalarning paydo bo`lishi model`yer va konstruktorlarga erkaklar kiyimi assortimentini kengayishi turli xil uyg`unlikda va rang – baranglikda bo`lishiga olib keldi. Bunday hollarda foydalanilayotgan materiallar xususiyati hisobga olinib, pidjak va palto uchun erkinroq chiziqlar tanlanadi.

Yangi matolardan tikiladigan erkaklar buyumi konstruksiyasida shuni ham hisobga olish kerakki, bug`lantiruvchi ishlov yordamida har doim ham mo`ljallangan shaklga erishib bo`lmaydi. Shuning uchun bunday matolarda shakl hosil qilish konstruktiv jihatdan hosil qilinadi, ular foydalanish jarayonida juda

chidamli sanaladi. Shu jumladan, turli variantli yaxlit bichimli detallar va o`tkazmalar ham hisobga olinadi.

Tarkibida sintetik tolalar foizi ko`p matolardan tikilgan buyumlarning dazmollanganda yetkaziladigan zararni hisobga olib, quyidagi asos chizmalarning variantlari keltiriladi:

Ort bo`lakning kuraklar sohasida hajmli shaklini orqa yelka vitochkasi ta`minlaydi. Shaklga chidamli trikotaj polotnodan buyum loyihalashda matoning ichki tomoniga dublirin qotirilishi zaruriy bo`lib, u buyumga chidamlilik, tashqi ko`rinish yaxshilanishi, polotno halqalarining tarqalib ketishiga monelik qiladi. Ko`ndalang o`tuvchi choklar va mayda detallar loyihalashda deyarli qo`llanilmaydi. Orqa kenglikda salqishlar hisobga olinishi zaruriyati bo`lmasa – da, shunday hollarda salqishning hisobi (0,1 – 0,2 sm) olinadi. So`ngi paytlarda mo`ynadan qilingan erkaklar ustki kiyimi muhim o`rin egallaydi. Ular odatda issiq saqlovchi astar bilan tikiladi. Ko`plab choklarsiz, ko`pincha yon choklarsiz yaxlit bichimli adip, bir chokli yengdan tashkil topadi. Konstruktiv burmani ort bo`lakka yelka choki egallaydi, yeng qiyamasi burmasini ham vitochkaga yig`iladi.

Burma, detallarning chetlari to`g`ri chok bilan mustahkamlanadi. Yenglar turli xil bichimda bolishi mumkin. Nimyopishgan va yopishgan siluetni hosil qilish uchun bir nechta detallardan bo`lib konstruktiv chiqariladi. Turli detallarga bo`lib chiqish badiiy bezashga kiradi va buyumning yaxlitligi mukammal, hamda sodda darajada bo`ladi. Buyumning yenglari turli xil detallardan hosil qilinib, turli konstruktiv chiziqlar bilan to`g`irlanadi [23]. Ushbu adabiyotda berilgan ma`lumot dissertatsiyaning tajriba sinov qismiga asos bo`lib, tahlil qilishga yordam beradi.

Erkaklar ustki kiyimining konstruksiyasi ayollar kiyimi konstruksiyasidan katta farqqa ega emas. Umumiy prinsiplar o`z holicha qolib, tana tuzilishining xususiyatlari erkaklarnikiga nisbatan shartli ravishda ayollarnikida o`zgaradi. Bunday o`zgarishlar bir qator formulalar va alohida konstruksiya bog`liqliklariga asoslanadi. Yuqori vitochkaning ko`krak bo`rtmasini hosil qiluvchi choki yo`qligi va u pastgacha tushib borishi dazmollash yordamida hosil qilinadi. Erkaklar kiyimi ayollarnikiga qaraganda bichimlarning kamroqligi bilan farqlanadi. Eng ko`p



tarqalgan o`tkazma, reglan va aralash yenglardir. Ayollar kiyimining konstruktiv metodikasi kabi erkaklarniki ham SNISHP tomonidan ishlab chiqilgan, u zamonaviy ishlab chiqarishning barcha talablariga javob beradi, o`zining konstruktiv ishlanmalari bilan turli xil bichimdagi modellar, siluetlar, yangi materiallar bilan ishlashda yo`riqnoma beruvchi, ma`lum bir hajmda texnologik ishlab chiqarish korxonalari hisobga olgan holda yo`naltiradi. SNIISHP metodikasi sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlay oladigan vositadir. Konstruksiyaning aniqlanishi va hisobi barcha elementlari tipoviy qomat o`lchamlari yordamida olinadi. Buyumning muvozanati hisobli formula bilan emas, tipoviy qomat o`lchanishi bilan belgilanadi (Дтс va Дтп). Konstruksiya asosiy gorizontal chiziq bel chizig`i hisoblanadi, chunki ko`pgina odam qomati tayanchi nuqtalari aynan shu sathdan belgilanadi – Дтс, Дтп, Впк, Впкп. Buyum konstruksiyasida qomat tikligi hisobga olinadi: o`lcham belgilari Пк va Вп.

Metodika alohida qismlarni unifikatsiya qilish imkoniyatini beradi (orqa bo`lak o`rta chizig`i, yeng o`mizi, yeng, bo`yin o`mizi va b.), bunda ishlov berish jarayonida yarim avtomatlarning qo`llanishi alohida zarur.

Buyumning konstruktiv ishlanishida kiyimning asosiy xususiyatlari, model sifatini aniqlab (cho`ziluvchanlik, o`lchamga mutanosiblik, gigienikligi, shaklga chidamliligi, ishqalanishga chidamliligi), tayyorlanishga rentabilligi hisobga olinadi.

Erkaklar kiyimi detallarining konstruktiv yechimi ustki va ostki astarlik matolarning texnologik xususiyatlari – kiyilishdagi cho`ziluvchanlik ahamiyatga ega [ 21]. Ushbu adabiyotdan olingan ma`lumotlar tahlil jarayonida yordam berdi.

Erkaklar kostyumi 2 ta predmetdan iborat: pidjak va shim. Pidjak uchun, asosan ikkita siluet tanlangan: to`g`ri va nimyopishgan. Kundalik kostyumlar uchun bel deyarli bilinar – bilinmas to`g`ri siluet tavsiya etiladi. Rasmiy va marosimlar uchun uzaytirilgan nimyopishgan siluet mos.

Syurtuk doimo o`z kengaytmasiga ega bo`ladi. Moda o`zgarishiga qaramasdan pidjakning ko`krak sathi erkin yotishining kattaligi o`zgarmaydi. Oxirgi 8 – 10 yillar davomi u o`zgarmas 6 - 7,5 sm ga ko`krak yarim aylanasida

shu holat turibdi. Pidjak konstruksiyasida erkin harakatlanish uchun qo`shimchalar tarkibi yuqori (50 % dan) bo`lgan lavsan tolali matodan qilinayotganda yopishganlikka 2 sm erkinlik, orqa kenglikka taqsimlanib (0,5 sm), yeng o`mizi (1 sm) va old qism 0,5dan olinadi. Syurtuk odatda uchta yotuvchi choklar (ikkita yon va bitta orqa) yordamida moslanuvchi konstruktiv hajm chiqariladi. Old qismning cho`ntagidan old va yon vitochkalar joylashadi. Pidjakda old vitochka odatda old qismning ko`krak bo`rtmasini chiqarish uchun foydalaniladi. Bunday hollarda kesimli yon bo`lak konstruksiyasi chiqariladi yoki old vitochka pastgacha davom ettiriladi.

Yon cho`ntakning qirgimi odatda old bo`lak yeng o`mizi vertikaliga simmetrik tarzda olinadi. Vitochkali old bo`laklarda pidjakning pastki qismigacha 1 sm qilib olinadi.

Listochkali yuqori cho`ntak old chap bo`lakning og`ishi bilan bort tomonda joylashadi. Listochkaning yon tomonlari parallel holatda bo`ladi. Cho`ntaklarning mexanik ishlari normallashtirgan va yon cho`ntak uchun o`lcham guruhlariga ko`ra o`rnatilgan:

44 – 50 R uchun – 15,5 sm;

52 – 60 R uchun – 16,5 sm;

Listochkali cho`ntak uchun;

44 – 46 R uchun – 10 sm;

48 – 50 R uchun – 10,5 sm;

52 – 56 R uchun – 11 sm;

58 – 60 R uchun – 11,5 sm;

Taqilmaning shakli va bortiga ko`ra, pidjak ikki bortli yoki bir bortli bo`ladi. Ikki bortli taqilma bir bortli taqilmadan farq qiladi. Ikki bortli taqilmada bortlar kengligi, pastki qism shakli, lastkonlarning shakli va kengligi bilan farqlanadi. Bortning kengligi tayyor holatda bir bortli pidjakda 2 – 3 sm, ikki bortliga 8 – 10 sm.ni tashkil qiladi.

Listochkalarining kengligi bir bortli pidjaklarda – 5 sm.dan 7 sm.gacha, ikki bortlida – 8 sm va ko`proq modelga ko`ra tashkil qiladi. Taqilma qirqimlarini

joylashuvda aniq bir qoidalar yo`q. Odatda, pastki taqilma qirqimi cho`ntak sathiga yoki klapinining pastki qirrasiga nisbatan ochiladi. Agarda taqilma bitta tugmali bo`lsa, uni bel sathiga joylashtiriladi.

Pidjakning tipoviy shakldagi yengi – ikki chokli o`tkazma yeng bo`lib, u old va orqa bo`laklardan iborat .

Tayyor holatda yeng kengligi: o`miz ostida – 21 – 22 sm, pastda – 15 – 16 sm. Bilak qismida shlitsalar uchun qo`shimchalar beriladi. Shlitsalar tayyor holatda 8 – 9 sm uzunlikni tashkil qiladi. Shlitsa kengligi 2 sm.

Pidjakning yoqasi qayrilma, ikkita detaldan iborat: yoqa va pastki yoqa. Unung uzunligi lastkanning joylashuviga bog`liq. Tipoviy kenglik: uchlarida 3 – 3,5, o`rtasi – 7 – 8 sm; Pidjakning asosiy detallari tipoviy konstruksiyada (old bo`lak, ort bo`lak, yenglar, yoqa) modellar metodlarga ko`ra murakkablashtiriladi [24]. Ushbu adabiyotdan olingan ma`lumotlar dissertatsiyada berilgan mavzu bo`yicha tajriba sinov qismining asosiy tahliliga yordam beradi.

### **1.5. YeMKO "SEV" metodikasi**

Barcha konstruksiyalash usullari nazariy tayanchsiz, konstruktorning shaxsiy tajribasi va intuitsiyasiga asoslangani sababli qator davlatlar hamkorligida 1976 – yildan 1980 – yilga qadar konstruksiyalash umumiy uslubini yaratish uchun kiyim konstruksiyalash sohasida muhim masalalar yechildi [25]:

- kiyim konstruksiyalash bo`yicha nufuzli davlatlar tiliga xos atamalar majmui tuzildi;
- konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimiga asoslangan kiyim konstruksiyasiga oid texnik chizmalar qoidalari ishlab chiqildi;
- erkaklar, ayollar va bolalarga mo`ljallangan kiyimlar yagona konstruksiyalash uslubining nazariy asoslari yaratildi;
- kiyimlar asosiy turlarining bazaviy konstruksiyalari tuzildi;
- kiyim detallarining asoslangan gradatsiyasi prinsiplariga asoslanib tavsiya qilindi;

- konstruksiya tuzishda materiallar xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha tavsiyalar tuzildi;
- konstruksiyada texnologiyaning hisobga olinadigan xususiyatlari ko'rsatildi;

Ushbu tavsiyalar 1981 – yildan 1985 – yilgacha laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida keng miqyosda sinalgandan so'ng kiyim konstruksiyalash yagona uslubi (EMKO) sifatida amaliyotga yo'llanma oldi.

YeMKOning umumiy va universal xususiyati asosiy konstruktiv kesmalar majmuining belgilanishi va ularni aniqlash usulidadir. Kesmalar majmui tananing yuqori va pastki qismlariga mo'ljallangan ikki qismga bo'lingan holda har qanday kiyimlar turida takrorlanadi. Konstruktiv kesmalar majmui moda yo'nalishiga, texnologiya va materiallar xususiyatiga bog'liq emas. Kesmalar majmuidagi har qaysi hisoblash formulalari raqamlar tartibida o'z o'rniga ega. Har qanday kiyim turini konstruksiyalash uchun yagona usulda umumiy yagona ketma-ketlik tuzilgan:

- o'lchamlar yagona tizimi;
- qo'shimchalar tasnifi va yagona tizimi;
- formulalar yagonaligi va konstruksiya tuzilishining yaxlit ketma-ketligi;
- kiyim konstruksiyasining yagona asosi va kiyim turlarining bazaviy asosi;
- gradatsiyaning yagona tamoyillari;
- konstruksiyaga oid texnik chizmaning qat'i qoidalari;
- konstruktiv nuqtalarning bir xil nomlanishi va raqamli belgilanishi;
- konstruktorlik hujjatlarining yagona hajmi va mazmuni;

Assortimenti, bichimi, vazifasi bo'yicha farqlanadigan turli materiallardan yakka tartibda va ommaviy tarzda tayyorlanadigan turli kiyimlar konstruksiyasini ishlashda ushbu uslub dastlabki baza sifatida qo'llanishi mumkin. Mazkur uslub ilmiy jihatdan asoslangan, chunki uning dastlabki bazasi sifatida nufuzli davlatlar aholisining antropometrik o'lchamlari, ilmiy jihatdan asoslangan konstruktiv va texnologik qo'shimchalar tizimi va konstruksiya qurishda tahliliy hisoblash formulalari ishlatilgan. Asosiy konstruktiv kesmalarining ularga xos o'lchamlar

orqali aniqlanishi kiyim konstruksiyasini tez qurishni va qomatga yaxshi o`rnashuvini ta'minlaydi ( Ilova 3 - rasm).

### **1.6. Unifred Aldrich ingliz metodikasi**

Unifred Aldrich - moda industriyasida yuqori malakali kadrlarni o`ziga jalb etuvchi ingliz metodikasi hisoblanadi. Liboslarni konstruksiyalash - bu jarayon hisoblanib, uning asosiy obyekti “qomat - kiyim” sistemasidir. Qomat bo`yicha ma'lumotning, o`lcham belgilarining, qomat tuzilishining o`ziga xos xususiyatlarining qanchalik to`liqligiga qarab chizmalarining sifati belgilanadi. Velikobritaniyada 20 ta o`lcham belgilarini YEMKO SEVning 32 ta o`lcham belgilari va 14 ta tekshiruv belgilari bilan qiyoslash uchun ishlatiladi. Shu sababli ko`pgina konstruktiv parametrlar hisoblanmaydi va ayollar tipaviy qomatiga mos tekshirilgan o`xshashliklar orqali amalga oshiriladi.

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o`sib boruvchi raqamlarning ishlatilish asosiga binoan andozani qurish sxemasining mohiyati bo`yicha har bir nuqtaning joylashish ketma - ketligini aniqlash mumkin. Konstruktorlik modellashtirishning barcha usullari rasmga olingan bo`lib, modellarning texnik rasmlari va konstruktorlik o`lchamlar asosida bajarilgan andozalar sxemasi ko`rsatib o`tilgan.

Ingliz metodikasi tipaviy va notipaviy qomatlarga chizmalarni tayyorlash jarayonida paydo bo`luvchi qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo`yicha tavsiyalardan iborat. Shuningdek, detal chizmalarining balansini va mos kelishini tekshirish bo`yicha noyob metodika keltirilgan bo`lib, ular orqali maket matosidan tayyorlangan birinchi namunaning bichilish o`lchamlarining to`g`rililigini tekshirish va qomat ustida tekshirib ko`rish mumkin jarayonlarini amalga oshirish mumkin ( Ilova 4 - rasm) [26].

## 1.7. Italiyan metodikasi

Italiyan metodikasining boshqa metodikalardan ajralib turadigan jihati, ulardagi konstruktiv qo`shimchalarning gradusda berilganligidadir. Italiyan metodining konstruktiv qo`shimchalari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

0 gradus – ichki kiyimlar uchun qo`shimcha;

1 gradus – ko`ylak, shim, futbolka uchun;

2 gradus – pidjak, jaket, nimchalar uchun;

3 gradus – vetrovka, plashlar uchun;

4 gradus – palto, kurtka, dublyonkalar uchun;

Ushbu metodika tipaviy va notipaviy qomatlarga chizmalarni tayyorlash jarayonida paydo bo`luvchi qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo`yicha tavsiyalardan iborat. Shuningdek, detal chizmalari balansini va mos kelishini tekshirish bo`yicha noyob metodika keltirilgan bo`lib, ular orqali maket matosida tayyorlangan birinchi namunaning bichilish o`lchamlarining to`g`riligini tekshirish va qomat ustida tekshirib ko`rish mumkinligi jarayonlarini amalga oshirish mumkin ( Ilova 5 - rasm).

Italiyan metodikasi modellashtirishning va konstruktsiyalashning noyob usullarini yaratishda dizayner g'oyasini rivojlanishiga imkon beradi [27].

## I bob bo'yicha xulosa

“Pret – a - porte” yo`nalishida erkaklar kostyumini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlari, o`rta yoshdagi erkaklar kiyimlarida qo`llaniladigan uslublar va zamonaviy moda yo`nalishi, o`rta yoshdagi erkaklar kiyimini loyihalashda turli xil metodlar o`rganilgan. O`rta yoshdagi erkaklar kiyimining yo`nalish va uslublarini, dizaynerlar ijodini, erkaklar uchun tavsiya etilgan matolarni fizik – mexanik xususiyatlari, konstruksiyaning o`ziga xos xususiyatlari o`rganilib tahlil qilindi.

O`rta yoshdagi erkaklar kiyimlarining tuzilishi bo'yicha, foydalaniladigan matolari, shakli, turi, bichimi, ranglar bo'yicha yechimi, bezaklari va h.k. Shuningdek, fizik, psixologik va fiziologik o`ziga xos xususiyatlarining rivojlanishi ham har xil bo`ladi. O`rta yoshdagi erkaklarning kiyimida modaning rivojlanishi asosan, ularning xohish – istaklari asosida amalga oshiriladi. Unda jadal o`zgarib boruvchi shakllar, siluet va hajmlar, shuningdek, aksessuarlarning ishlatilishi kuzatiladi.

Erkaklar pidjagi eng murakkab konstruksiyalardan hisoblanadi. Bu yo`nalishda muammo yechimini hal etish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirgan: E. B. Koblyakova, E. A. Yanchevskaya, X.X. Kamilova, B. S. Sakulin, E. K. Amirova, O. B. Sakulina, A. T. Truxanova, A. Ya. Skovronskiy, A.A. Martinova, T. B. Kozlova, Salamatina va boshqa adabiyotlar o`rganilgan.

## **II BOB. TAJRIBA SINOV QISMI**

### **2.1. Yog`och o`ymakorlik naqsh elementlarini milliy matolarda loyihalashda tatbiq etish**

Yog`och o`ymakorligi o`zbek xalq amaliy bezak san`atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog`och buyumlarga chizib, kesib, o`yib ishlanadi. Badiiy san`atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo`lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog`och o`ymakorligining rivojlanib o`ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O`rta Osiyoda ham yog`och o`ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy – ro`zg`or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo`llanilgan. Bu o`ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil to`sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Xalq yaratgan asarlar o`zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog`ochdan ishlangan ajoyib yog`och o`ymakorligiga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar o`tishi bilan ular namga dosh berolmay deyarli ko`pchiligi chirib, yo`q bo`lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda [29].

XI – XII asrlarda xalq amaliy san`ati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo`lgan geometrik naqsh, ya`ni girih naqshi bezakda yetakchi o`rinni egalladi. Masalan, XII asrga oid yog`och o`ymakorligi namunasi Samarqanddagi Shohi – Zinda devorining orasidan topilgan bo`lib, u o`zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi [30].

#### **Trafaret**

Trafaret (italyancha trafaretto – teshmoq, o`ymoq degan ma`noni beradi) naqsh yoki rangli suratlarni yaratishda ishlatiluvchi uskuna. Odatda uni plastina, plasmassa, nutal yoki kartondan hosil qilinadi. Tikuvchilik sohasida bu moslama klyonka yoki qog`ozdan tayyorlanadi, chunki bunda chiziladigan sur`at chegaralari aniq ko`rinish hosil qiladi. Uni odatda mato bichish, fason yaratishda ishlatishadi.



## 2.2 Erkaklar pidjagi konstruksiyasining o`ziga xos xususiyatlari

Aholining zamonaviy o`lchamli tipologiyasi va istiqbol moda yo`nalishiga moslangan holda optimal to`kislik qo`shimchalariga asoslanib, uch-to`rt yilda bir marta tuziladigan asosiy detallar rejali konstruksiyasi kiyim konstruksiyasining bazaviy asosi deyiladi. Bazaviy konstruksiyada choklar va vitachkalar kabi asosiy shakl hosil qiluvchi elementlarning shakli va ularning tipaviy joylanishi o`z aksini topgan. Ayollar va erkaklar ust kiyimlarining konstruksiyalarida esa buyumlarning hajmiylik shaklini ta'minlaydigan texnologik ishlov berish xususiyatlari ham belgilanadi.

Bazaviy asoslar konstruksiyalari siluet, turli bichim, material (gazlama, trikotaj, charm va h.k.), yosh-jinsiy va to`lalik guruhlarga bo`lingan kiyimlarning har bir xiliga tuziladi. Siluet va bichim kiyimning umumiy hajmiy shaklini va konstruktiv tuzilishini xarakterlaydi.

Erkaklarning yelkada turadigan buyumlarining chizmasi old va ort bo`laklar chizmalarini bitta umumiy bazis to`rida qurishdan boshlanadi. Yeng va yoqa chizmalari keyinroq quriladi.

Asos konstruksiyasining chizmasini qurishga ishlatiladigan o`lchamlar ro`yxati 1 – jadvalda keltirilgan.


2.1 - jadval

### Pidjak chizmasini qurish uchun o`lchamlar

O`lchamlar belgilanishi	O`lchamlar	O`lchamlar qiymati
T13	Bo`yin yarim aylanasi	21
T14	Ko`krak yarim aylanasi birinchi	56
T15	Ko`krak yarim aylanasi ikkinchi	57
T16	Ko`krak yarim aylanasi uchinchi	54
T18	Bel yarim aylanasi	45

T21	Bo`ksa yarim aylanasi (qorin chizig`i bilan)	55
T45	Ko`krak kengligi	40,8
T40	Orqa bel chizig`idan bo`yin asosi nuqtasigacha bo`lgan masofa	49,1
	Old bo`yin asosi nuqtasidan bel chizig`igacha bo`lgan masofa	51
T37	Bo`yin asosi nuqtasidan orqa qo`ltiq burchagi sathigacha bo`lgan masofa	33,7
T41	Yelkaning qiya balandligi	52,5
T47	Orqa kengligi	45,6
	Buyum uzunligi	82
T31	Yelka qiyaligining kengligi	18,2
	Yeng uzunligi	67
T28	Yelka aylanasi	35

Asos chizmasining bazis to`ri o`zaro perpendikular to`rtta gorizontaal va vertikal chiziqlardan iborat (2.7 – rasm ).



2.7 – rasm. Erkaklar pidjagining asos to`ri

### 2.3. Tadqiqot qilingan metodlarda qo`llanadigan o`lchamlar tahlili va tizimi

2.2 - jadval

#### Erkaklar syurtugini qurish uchun konstruktiv o`lchamlar

№	Nomlanishi	Qiymat (sm)					
		Unifred Aldrich	Shartli belgisi	YeMKO "SEV"	Shartli belgisi	Fransuz metodi	Italian metodi
1	Bo`y	188	P	188	T1	180	179
2	Ko`krak aylanasi			108	T16	104	104
3	Bel aylanasi	91	O <sub>T</sub>	90	T18	90	96
4	Asosiy bo`yin nuqtasining uzunligi			162,7	T4		
5	Yelka nuqtasining uzunligi			154,9	T5		
6	Bel uzunligi			119,2	T7		
7	Orqa bo`yin nuqtasining uzunligi			164,6	T10		
8	O`tirish nuqtasining uzunligi			88,5	T12		
9	Bo`yin aylanasi	43	O <sub>III</sub>	42,8	T13		45
10	Ko`krak aylanasi I		O <sub>Г I</sub>	112,2	T14		
11	Ko`krak aylanasi II	108	O <sub>Г II</sub>	113,6	T15		

12	Qorinning do`ppayagini hisobga olib bo`ksa aylanasi			107,3	T19		
13	Bo`ksa aylanasi	110	O6	62,4	T21		106
14	Yelka aylanasi			35,0	T28		
15	Bilak aylanasi	18,4	O3an	19,6	T29		20
16	Yelka qiya kengligi			18,2	T31		
17	Bo`yin asosiy nuqtasidan bilakkacha masofa			55,3	T32		
18	Bo`yin asosiy nuqtasidan tirsakkacha masofa			84	T33		
19	O`miz balandligi	26,2	Bnp3	31,2	T34	21,5	
20	Ko`krak balandligi			38,7	T35		
21	Belgacha uzunligi			57,4	T36		
22	Bo`yin asosiy nuqtasidan o`mizgacha masofa			33,7	T37		
23	Bo`yin asos nuqtasidan kurakning II nuqtasigacha			25,5	T39		

24	Orqa uzunlik belgacha	45,6	Дтс	49,1	T40	47,25	48,9
25	Yelka qiya balandligi			52,5	T41		
26	Yon asos bo`yin nuqtasidan bel yon chizig`igacha			52,5	T43		
27	Ko`krak kengligi			40,8	T45		
28	Ko`krak orasidagi masofa			25,0	T46		
29	Orqa kenglik	42	Шс	45,6	T47		44,6
30	O`tirganda bel bilan kursi orasidagi masofa	29,5	Дс	26,7	T49		20,7
31	Tirsak uzunligi						37,6
32	Yeng uzunligi			66		65,9	65,5

#### 2.4. Qo`shimchalarning tasnifi va tizimi

2.3 - jadval

#### Erkaklar syurtugini qurish uchun aniqlangan qo`shimcha qiymatlarning qiyosiy tahlili

№	Shartli belgisi	Nomlanishi	Qo`shimchalar			
			Unifred Aldrich	YeMKO "SEV"	Fransuz	Italian
1	ПсГ II	Ko`krak aylanasi II	7,5	7,8	8	12
2	Папрз	O`miz balandligi	3	4	3	2
3	ПДтс+ПШОВ	Orqa uzunlik belgacha	1	2,31		

4	Пшс+Пшов	Orqa kenglik	2	2,1	11	3
5		Bel aylanasi		7		12
6		Bo`ksa aylanasi		7		13
7		Yelka aylanasi		6		
8		Bo`yin kengligi			6,25	
9	Ди	Pidjak uzunligi	Modelga qarab	Modelga qarab	Modelga qarab	Modelga qarab

2.4 - jadval

Kiyim ko`rinishi	Chiziq bo`ylab absolyut to`lalik qo`shimchalari			
	Ko`krak	Bel	Bo`ksa	Yelka aylanasi
Yemko SEV metodi				
yopishgan	6,0	5,0	5,0	5,0
nimyopishgan	8,0 (7,0 ÷ 9,0)	7,0(6,0÷8,0)	7,0(6,0÷8,0)	6,0(5,0÷7,0)
to`g`ri	10,0(9,0÷11,0)	9,0(8,0÷10,0)	9,0(8,0÷10,0)	8,0(7,0÷9,0)
“Unifred Aldrich” ingliz metodi				
yopishgan				
nimyopishgan	7,5			
to`g`ri				
Fransuz metodi				
yopishgan				
nimyopishgan	8			
to`g`ri				
Italian metodi				
yopishgan				
nimyopishgan	10	10	12	
to`g`ri				

**Erkaklar ustki yelka kiyimida erkin yotuvchi qo`shimchalari (pidjak)**

Qo`shimchalar nomi	Shartli belgisi	Siluetlarga ko`ra qo`shimchalarning absolut kattaligi, sm		
		yopishgan		to`g`ri
Ko`krak sathining ort bo`lak erkin yopishganligi	$\Pi_c$	1,0-1,5	2,0-2,5	
Ko`krak sathining old bo`lak erkin yopishganligi	$\Pi_n$	1,0-1,5	1,5-2,0	
Yarim bel aylanasi	$\Pi_r$	7,0-9,0	modelga qarab belgilanadi	
Yarim bo`ksa aylanasi	$\Pi_6$	4,0-6,0	modelga qarab belgilanadi	
Yeng o`miz chuqurligi qo`shimcha	$\Pi_{\text{cnp}}$	2,5-3,0	2,5-3,0	
Ort bo`lak bo`yin o`mizi kengligi	$\Pi_{\text{ш.г.с}}$	1,0-1,5	1,0-1,5	
Ort bo`lak bo`yin o`mizi balandligi	$\Pi_{\text{б.г.с}}$	0,2	0,2	
Yelka aylanasi	$\Pi_{\text{он}}$	9,0-10,5	11,0-12,0	
Yeng qiyamasining 1 sm.ga o`miz uzunligiga normasi	H	0,06-0,08	0,06-0,08	

**2.4. Olingan natijalar tahlili**  
**Metodlarni maketlardagi qiyosiy tahlili**



**2.8 – rasm. Italiyan metodi**



**2.9 – rasm. “Unifred Aldrich metodi”**



“Yemko SEV” metodi























2.10 – rasm. “YEMKO SEV” metodi

“Fransuz” metodi



2.11 – rasm. Fransuz metodi


**Maketlardagi nuqsonlarning qiyosiy tahlili** (2.8, 2.9, 2.10, 2.11 - rasmlar).

№	Nuqsonlar nomi	Yemko SEV	Italyan metodi	Unifred Aldrich	Fransuz metodi
1	Vertikal taxlamalar				
2	Gorizontal taxlamalar				
3	Orqa bo`lakning yoqa ostida bo`sh gorizontal taxlamalar				
4	Orqa kenglikdagi burchak taxlamalari				
5	Old bo`lakda burchak taxlamalari				

Izoh:


Ko`p –  (50%)O`rtacha -  (25%)Juda kam –  (15%)Yo`q –  (10%)

2.7 - jadval




Metod	Nuqsonlar, %
Yemko SEV	10
Unifred Aldrich	25
Fransuz	15
Italiyan	50

2.8 - jadval




Metod	Nuqsonlar, %
Yemko SEV	25
Unifred Aldrich	10
Fransuz	50
Italiyan	15

2.9 - jadval



Metod	Nuqsonlar, %
Yemko SEV	25
Unifred Aldrich	50
Fransuz	10
Italiyan	15

2.10 - jadval



Metod	Nuqsonlar, %
Yemko SEV	10
Unifred Aldrich	50
Fransuz	15
Italiyan	25

( 12 – 13 – 14 - rasmlar).avtocad konstruksiya






**Erkaklar pidjagining asos konstruksiyasida yelka kamarini hosil qilgan  
qo`shimchalarning taqqosiy tahlili**

№	Nomlanishi	Konstruktiv metodlar			
		Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz metodi	Italian metodi
Old bo`lak					
1	Bo`y	188	178	180	179
2	Ko`krak aylanasi	108	108	104	104
3	Ko`krak balandligi	38,7			
4	O`miz balandligi	31,2	26,2	21,5	
5	Bo`yin asosiy nuqtasidan o`mizgacha masofa	33,7			
6	Yelka qiya balandligi	52,5			
7	Ko`krak kengligi	40,8			
8	Bo`yin aylanasi	42,8	43		45
9	Belgacha uzunlik	57,4			
Ort bo`lak					
1	Bo`yin aylanasi	42,8	43		45
2	Yelka qiya kengligi	18,2			
3	Bo`yin asos nuqtasidan kurakning II nuqtasigacha	25,5			
4	Yelka qiya balandligi	52,5			
5	Orqa kenglik	45,6	42		44,6
6	O`miz balandligi	31,2	26,2	21,5	
7	Orqa uzunlik belgacha	49,1	45,6	47,2	48,9



### Erkaklar pidjagining asos konstruksiyasining yelka kamarining taqqosiy tahlili


Belgi nomi	Konstruktiv metodlar			
	Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz	Italiyan
Ort bo`lak				
A	0;0	↑ 21;9 →	↑ 13;6 →	↑ 8;2 →
II	0;0	↑ 15;4 →	↑ 7;2 →	↑ 5;3 →
Og`ish burchagi				
A	<26	<22	<21	<22



2.13 – jadval

Nuqtalar	Koordinata o`qlar	Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz	Italiyan
A	Y	0	21	13	8
	X	0	9	6	2
II	Y	0	15	7	5
	x	0	4	2	3

Belgi nomi	Konstruktiv metodlar			
	Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz	Italiyan
Old bo`lak				
A	0;0	↑18 ;10 ←	↑ 6; 2 ←	↑ 7; 2 ←
II	0;0	↑10; 8 →	↑ 4; 4 →	↑ 2; 3 →
Og`ish burchagi				
A	<20	<16	<21	<18




2.15 – jadval

Nuqtalar	Koordinata o`qlar	Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz	Italiyan
A	Y	0	18	6	7
	X	0	10	2	2
II	Y	0	10	4	2
	x	0	8	4	3


2.16 – jadval

Belgi nomi	Konstruktiv metodlar			
	Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz	Italiyan
Yon bo`lak				
A	0;0	↑ 21;9 →	↑ 13; 6 →	↑ 8; 2 →
II	0;0	↑ 15;4 →	↑ 7; 2 →	↑ 5; 3 →
Og`ish burchagi				
A	<26	<22	<21	<22



2.17 – jadval

Nuqtalar	Koordinata o`qlar	Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz	Italiyan
A	Y	0	21	13	8
	X	0	9	6	2
II	Y	0	15	7	5
	x	0	4	2	3



2.18 - jadval

Detal nomi	Yemko SEV	Unifred Aldrich	Fransuz	Italiyan
Old bo`lak	20	16	21	18
Ort bo`lak	26	22	21	22
Yon bo`lak	26	22	21	22

Asosiy konstruktiv kesmalarning ularga xos o`lchamlar orqali aniqlanishi kiyim konstruksiyasini tez qurishni va qomatda yaxshi o`rnashuvini ta`minlaydi.

## II bob bo'yicha xulosa

Erkaklar kiyimini loyihalashda bezak turi sifatida o'zbek milliy amaliy san'ati bo'lgan yog'och o'ymakorligi naqsh elementlari o'rganildi. Naqsh turi sifatida "Oltin kesim" naqshi asos qilib olingan va o'rganilib, tahlil qilindi.

"Pret – a - porte" yo'nalishida erkaklar kiyimini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari va "YEMKO SEV", Unifred Aldrich, Fransuz, Italiyan metodlarining o'lchamlari va qo'shimcha qiymatlari tahlil qilindi. Erkaklar pidjagini loyihalashda turli xil metodlarni tahlil qilish maqsadida maketlar tikilib, tipaviy manikenlarga kiydirilib nuqsonlari o'rganildi. Erkaklar ustki kiyimi yelka kamarining tanlangan metodlar bo'yicha qiyosiy tahlili yelka balandligi, og'ish burchagi, nuqsonlari ushbu konstruksiya asos va bazaviy maketda aniqlandi. Izlanish olib borilgan metodikalar "YEMKO SEV", Unifred Aldrich, Fransuz, Italiyan metodikalar tipaviy qomatga maket bilan tekshirib tahlil qilinganda, eng kam nuqson "YEMKO SEV" metodikasida aniqlandi. Standart o'lchamlar, qo'shimchalarning ko'pligi sabab, tikilgan maket tipaviy qomatda yaxshi o'tirdi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, past va yuqori ko'rsatkichlar aniqlanib, o'rta yoshdagi erkaklar pidjagi loyihalandi.

### **III BOB. LOYIHA QISMI**

#### **3.1. Ijodiy manbaani tanlash**

Dizayner kostyum to'plamini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rang tasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usulidan foydalanish mumkin.

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojat qiladi [31].

Ushbu liboslar to'plamida yog'och o'ymakorlik naqshi – “oltin kesma” kompozitsion naqshi ijodiy manbaa qilib olindi.

Oltin kesma – insonning o'z hayotida boshqa shakllarga nisbatan to'g'ri to'rtburchak shakliga ko'proq moyilligi borligi ma'lum. Uning uy - joydan tortib kitob - daftari, xontaxtasi - yu, televizorlari, hayotida ishlatiladigan juda ko'p buyumlarida shu shakl keng o'rin egallaganini ko'ramiz. Inson ko'rish qobiliyatining ba'zi bir fiziologik xususiyatlariga ko'ra, ikkala ko'zning ko'rish maydoni elips shaklida bo'ladi. Bu elipslar ichiga to'g'ri to'rtburchak shakli mos tushadi. Demak, inson (intuitiv) ichki sezgisi, asosida o'zini o'rab turgan shu muttanosiblikda ko'radi.

Oltin kesim qonuni tushunchasini fanga eramizdan avvalgi XI asrda yashab o'tgan grek faylasufi va matematigi Pifagor olib kirgan. U o'z navbatida, bu qonunni qadimgi Misr, Vavilon ustunlari ishlarida qo'llagan. Eramizdan avvalgi 2590 - 2568 yillarda qurilgan va dunyodagi eng mashhur, muhtasham maqbara nomini olgan qadimgi Misr Gizadagi Xeops piramidasi ham oltin kesim qonuniga asoslanib qurilgan. Xeops piramidasi nisbatlari, Tutanxamon fir'avni maqbarasidan topilgan barelyeflar, ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlardan ma'lum bo'lishicha,

ularni yasashda ustalar shu qonundan foydalanishgan. Gretsiyadagi Parfenon ehromi balandligining uzunligiga nisbati 0,618 qismini tashkil qiladi. Ehromning boshqa unsurlari, qismlari, bo'laklari oltin kesim qonuniga asosan shu nisbat o'lchamlarida qurilgan. U erda arxeologik qazilmalar olib borilganida qadimgi me'morlar va haykaltaroshlar ishlatgan oltin kesim qonuni o'lchamlarida yasalgan sirkulni topishgan. Shuningdek, o'tgan buyuk grek olimlari Evklid, Gipsikl e.a. II asrda, Papp e.a. III asrda bu qonun ustida juda ko'p izlanishlar olib borishgan. Yevropada o'rta asrlarda bu qonunni arab tilidan tarjima qilib o'rganishgan va bu ma'lumotlarni sir saqlashgan. Ayrim olimlarga bu qonundan foydalanishgan. Uyg'onish davrida oltin kesim qonuniga qiziqish juda kuchayib ketdi. Bu qonun geometriya, san'at va ayniqsa, me'morchilikda keng qo'llanilgan. Buyuk rassom, olim, injener Leonardo da Vinchi va Luka Pacholi ismli rohib bu borada katta izlanishlar olib borishadi. Pero Dela Franchesko o'zining "Rang tasvirdagi perspektiva" nomli asari bilan chizma geometriya faniga asos soldi. Shu davrda Germaniyada Albrect Dyurer odam gavdasining nisbatlari oltin kesim qonuniga to'g'ri kelishini isbotladi [32].

XIX asr o'rtalarida, 1855 yilda nemis professori Tseyzing bu qonunni tabiat hodisalari va san'at uchun absolyut universal nisbat deb atadi (3.15 - rasm).




**3.15 – rasm. Oltin kesim**

Konseptuallik - bu loyiha madaniyatining mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyihaning qiymati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va xarakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan, balki loyiha madaniyati va jamiyatini rivojlanish asosiy raqobatlari bilan bog'liq. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ular muamolarini yechishda o'z hissasini kiritish lozim [33].

Yog'och o'ymakorlik – amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg'ayib borgan sari amaliy san'at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borishi jarayonida qo'l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy – ro'zg'or buyumlariga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi, keyinchalik esa yog'och o'ymakorligi ham sekin – astalik bilan o'z rivojini topdi [34].

Yog'och tarashlovchi usta naqqoshlar o'z san'atini yog'ochda, dov - daraxtlar aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'ati otadan bolaga, avlod - avlodga meros bo'lib o'taveradi. Milliy qalampir, bodom, anor naqqshlari hozirgi kunda o'tmishimizdan eng go'zal yodgorlik bo'lib qolgan (3.16 - rasm).



**3.16 - rasm. Islimiy naqsh.**

Islimiy naqqshlar bir – biriga ulangan bo'lib, o'sish, yuksalish degan ma'nolarni bildiradi. Bu naqqshlarda kichiklikdan kattaga intilish tasvirlangan bo'lib, go'dakni



ulg'ayishi, kamol topishi ma'no qilib bitilgan. Aylana naqshlar esa bir xalqni bir – biriga bo'lgan iliqligi, uzilmas naqshlarda esa oqibati tasvirlangan.

“Pret – a - porte” yo'nalishida ishlovchi dizaynerlarning bosh g'oyasi, tanlangan mato va model tasvirlari orqali ushbu yo'nalishni bir necha darajaga bo'lish mumkin. Jumladan, “pret - a - porte de lyuks” darajasiga katta namoyishlarda ishtirok etuvchi, bir muncha qimmatbaho matolardan tikilgan libos namunalari kiradi. Bunday liboslarda eng zamonaviy urfdagi bichimlarni kuzatish bilan birga, ularni ko'p hollarda kundalik kiyishga tavsiya etilmaydi. Ushbu yo'nalishda ishlovchi bir qator mashhur dizaynerlarni misol tariqasida keltirish mumkin, jumladan: Gucci, Prada, Vuitton, Chanel, Karan, Versace, Dior, YSL, Valentino, Fendi, Burberry, Kenzo, Ralph Lauren va boshqalar.

Aynan ikkinchi darajadagi “pret – a - porte” yo'nalishidagi liboslar ancha arzon narxda bo'lib, kundalik hayotda kiyishga mo'ljallangandir. Ushbu yo'nalishdagi liboslarni tikishni dizayner tavsiyasiga ko'ra katta fabrikalarda amalga oshiriladi. Ayrim hollarda “pret - a - porte de lyuks” yo'nalishi bo'yicha loyihalashtirilgan murakkab libos namunalari “Haute couture” yo'nalishida yaratilgan liboslar bilan taqqoslanadi [35].

Uslublarning o'zgarib borishi jadal barmoqda. Moda sohasiga shunday bir urfni kiritish kerakki, uning hissiyotlari jamiyatni befarq qoldirmasin. Ammo bugungi modaning chegarasi qolmadi. Yangi texnologiyalarning yangi shakllarida kuzatilmoqda.

Umumiy qilib aytganda, bu borada sezilarli darajada zamonaviy urfdagi liboslar to'plamini yaratishda prinsiplarning, yangi usul va vositalarning, moda san'atida dizaynerning asosiy maqsad va vazifasining ahamiyati o'zgarib borishi kuzatilmoqda.

### 3.2. Erkaklar ustki kiyimi haqida ma'lumotlar

**Erkaklar kostyumi assortimenti.** Erkaklar kostyumi klassik yoki sport uslubida bichiladi. Klassik uslubdagi kostyumlar ikki yoki uch qismdan iborat bo'lishi mumkin.

Klassik uslubdagi pidjaklarning detallari – qopqoqli qirqma cho'ntaklar, listochkali ko'krak cho'ntagidan iborat. Yoqa, bort, adip qaytarmasi, qopqoq pidjak etagi bo'ylab bezak baxyaqator yuritilishi mumkin. Pidjaklar astar bilan ishlov beriladi. Ort bo'lak ikki qismdan iborat bo'lib, o'rta yoki yon choklarining davomida kesim bilan ishlov berilishi mumkin. Klassik uslubdagi pidjaklarni tikish uchun, asosan qimmat gazlamalar ishlatiladi.

Sport uslubdagi pidjaklarda qirqma cho'ntaklardan tashqari qoplama cho'ntaklar ham qo'llaniladi. Old va ort bo'laklarida koketkalar, taxlamalarga ishlov berilishi mumkin. Pidjakalar pogon, belbog', xlyastiklar bilan bezatiladi. Pidjak yon choklarida yoki ort bo'lak o'rta chokida kesimga ishlov beriladi. Yoqa, adip qaytarmasi, bort ziylari bo'ylab bezak baxyaqator yuritiladi.

Yoshlar uchun kostyumlarda qoplama va qirqma cho'ntaklar, pogon, xlyastik, belbog', koketkalar qo'llaniladi. Detallar ziylari bo'yicha bezak baxyaqator yuritiladi. Bezak detallari velvet, charm, zamsh gazlamalaridan bichilishi mumkin.

Asosiy o'lchamlar: 188 – 108 - 90

Tanlangan material beqasam matosining narxi, tola tarkibi, sirtining kirishini, g'ijim bo'lishi, elastikligi jadval ko'rinishida ko'rsatilgan;

Guruhga mansubligi: O'rta yoshdagi erkaklar uchun.

### **Erkaklar syurtugiga qo'yiladigan talablar**

Iste'mol talablariga quyidagi talablar kiradi: Mahsulotga shaxsiy foydalanish vositasi sifatida qo'yiladigan estetik, gigiyenik, utilitar, ergonomik, ekspluatatsion, funksional va boshqa talablar. Loyihalashtirilayotgan obekt qo'yilgan sifat ko'rsatkichlarining darajalanishi

3.18 - jadval

#### **Sifat ko'rsatkichlar**

Sifat ko'rsatkich nomi		Rang
I daraja	II daraja	
Iste'molchi, shu jumladan:	Gigiyenik	2
	Ergonomik	3
	Ekspluatatsion	5
	Funksional	1
	Estetik	4
Texnik-iqtisodiy	Unifikatsiyalash va standartlashtirish	1
	Texnologik jihatdan qulaylik	2
	Iqtisodiy	3

Ma'lumki, eng ahamiyatli ko'rsatkichlar deb, ranglar summasi o'rtacha ranglar summasidan katta bo'lmagan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

### **Erkaklar syurtugiga zamonaviy moda yo'nalishi**

2016 – 2017 yilda nima urfga kiradi? Shuni yodda tutish kerakki, bu faqat sahnada emas, balki kundalik hayotda ham dolzarblikni nazarda tutadi.

Bu yilgi moda tendensiyasida erkaklarga nimyopishgan bichimdagi liboslarni kiyish tavsiya etilgan [36]. Unda albatta libosdagi ranglarga e'tibor berish zarur. Bu mavsumda to`q rangdagi liboslar urfga kirgan. Jumladan, jigarrang, kulrang, to`q yashil, qora kabi ranglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir (3.17 – 3.18 rasm).



**3.17 – rasm. ”Pret - a – porte,, uslubidagi o’xshash modellar**

Shu ranglarni e`tiborga olgan holda erkaklar liboslarida yog`och o`ymakorligidan ilhomlanib qilingan trafaret ranglarini moslashtirishga harakat qilingan. Kundalik kiyim sifatida keng, qulay, harakatlenganda o`zini erkin his qila oladigan bichimlar tanlandi. Yaratilgan liboslar to`plamida bugungi zamonaviy moda uslubiga xos tarzda libos fasonlari tanlab, ishlab chiqildi.



**3.18 – rasm. ”Pret - a – porte,, uslubidagi o’xshash modellar**

Shuningdek, tanlangan liboslar nafaqat qulay va erkin, balki, matosi jihatidan ham gigienik ko`rsatkichlarga ham mos keladi. Tabiiy tabiat tomonidan yaratilgan bu matolarda tana bermalol nafas oladi. Hammamiz bilamizki, tabiiy matolarning

inson sog`lig`iga hech qanday yomon ta`siri va zarari yo`q. Aksincha, u tana nafas olishiga yordam beradi, terlatmaydi, ventilyatsiya vazifasini ham yaxshi bajaradi.

3.19 - jadval

### O`xshash va etalon modellar xarakteristikasi

№	O`M haqidagi dastlabki ma`lumotlar	Struktura darajasi	O`xshash modellar		
			O`M-1	O`M-2	O`M-3
1	Assortiment vazifasi	Bashang	●	●	●
2	Mavsumi	Kuz – Bahor	●	●	●
3	Yosh guruhi	O`rta yosh	●	●	●
4	Kiyim yaratilgan muddat	2016 yil	●	●	●
5	Tavsiya etilgan razmer va bo`ylar	188-108-90	●	●	●
6	Material artikuli	Beqasam	●	●	●

O`xshash model



Yarim o`xshash model



To`g`ri kelmaydi



3.20 - jadval

### O`M sifat ko`rsatkichlari bo`yicha tahlili, ballarda

Sifat ko`rsatkichlari		yakka holda	O`xshash modellarni baholash ball		
			1-O`M	2-O`M	3-O`M
Iste`mol	Funksional	2	1	1	1
	Estetik	5	4	4	4
	Ergonomik	1	3	3	3
	Eksplulatatsion	4	5	5	5
	Gigenik	3	2	2	2
Texnik-iqtisodiy	Unifikatsiyalash	3	3	3	3
	Texnologik jihatdan qulaylik	2	2	2	2
	Tejamkorlik	1	1	1	1

### 3.3. Mato tanlash va asoslash

Beqasam – yo`l - yo`l gulli pishiq mato. Tanda ipi ipak, arqog`i ipdan to`qiladi. Arqoq ipi tanda ipidan yo`g`onroq bo`lgani uchun mato yuzasida ko`ndalang chiziqlar (g`adir - budirlik) hosil bo`ladi. To`qish jarayonida arqoq ipi ho`llanib turiladi. Maxsus ishlov berib “kudung”langandan so`ng beqasamning bir ta`rafi atlsdek silliq, tovlanib turadi. Oldindan bo`yalgan tanda iplari ishlatilishi natijasida beqasam guli ikki tomonlama xilma – xil va rang – barang bo`ladi.







O`rta Osiyoning yirik ipakchilik markazlarida ishlab chiqarilgan beqasamlar qalin – yupqaligi, mato enining tor – kengligi, rang xillarining tanlanishi, yo`l – yo`l gullarining tartibi jihatidan bir – biridan farq qilgan. Buxoro – Samarqand beqasamlarining arqoq ipi yo`g`on, mujassamoti markazi oddiy bir me`yorda takrorlanuvchi aniq keng (qora, qizil, sariq, zangori, binafsha) yo`llardan, qirg`og`I esa hoshiya yo`llardan iborat. Bundan tashqari, “zanjira” gular, abr nusxa yoki turli kvadrat, chiziqcha, mayda gullar va boshqa tasvirlar qo`shib bezatilgan. Mahalliy yorqin koloriti ranglarga boy. Beqasam Buxoro – Samarqand vodiysida “olacha” nomi bilan ham mashhur.

Farg`ona vodiysi beqasamlari yupqa va mayin. Chunki, arqoq ipi ingichkaroq; guli asosan, sovuq feruza binafsha ranglardan iborat. Ko`proq bo`rko`k tusli va turli xil yashil ranglarning bir – biriga mayin o`tishi bilan boshqa beqasamlardan ajralib turadi. Namangan, Marg`ilon, Qo`qon to`qimachilik fabrikalarida beqasamning oq, chivit, olti katak, marmar va boshqa turlari ishlab chiqariladi [37].

Erkaklar ustki kiyimi to`plami zamonaviy beqasam matosidan tikildi.

Sidirg`a - gazlamalarning xili ko`p: to`q va och rangga bo`yaladi, karda va qayta tarash usullarida yigirilgan kalava ipdan polotno, sarja, satin va mayda gulli o`rilishlarda to`qiladi [38].

## Konfeksion karta

<b>№</b>	<b>Mato nomi</b>	<b>Mato xarakteristikasi</b>	<b>Na'muna</b>
1	Beqasam	Paxta 100 %	
2	Sidirg`a mato	Paxta 100 %	
3	Astar	Sintetika	
4	Yelka yostiqchasi	Noto`qima	
5	Qotirma	Noto`qima	
6	Paxta tolali ip	Lx №44	

### **3.4. Tanlangan asosiy taklif - modelni asoslash**

#### **I - modelga tavsif**

Bahor – kuz mavsumiga mo`ljallangan erkaklar syurtugi. Ushbu syurtuk o`rta yoshli erkaklarga mo`ljallangan bo`lib, beqasam va sidirg`a matolardan tikilgan.

Silueti niyopishgan. Uzunligi tizzadan yuqorida. Syurtuk astarli. Bezak sifatida tushirilgan trafaretlar model eskiziga binoan.

Old bo`lak ikki qismdan iborat: koketka va old bo`lakdan. Yelka koketka qismi sidirg`a matosidan tikilgan, hamda taklif model asosida tibbiyot xloridan foydalangan holda trafaret tushirilgan. Old bo`lak taqilmasiz.

Ort bo`lak ikki qismdan iborat: ort bo`lak koketkasi va ort bo`lakdan tashkil topgan. Ort koketka qismi sidirg`a matosidan tikilgan. Ort bo`lak uch qismdan iborat bo`lib, o`rta bo`lagi sidirg`a matosidan tashkil tashkil topgan. Etak qismida qirqimi bor.

Yon bo`lagi ikki qismdan iborat: yuqori bo`lak va etak qismdan. Etak qismi sidirg`a matosidan iborat.

Yengi o`tkazma yeng bo`lib, ikki chokli: ustki va ostki.

Yoqasi taklif model asosida koketka bilan yaxlit bichilgan tik yoqa (Ilova 3.19 - rasm).

#### **II - modelga tavsif**

Bahor – kuz mavsumiga mo`ljallangan erkaklar syurtugi. Ushbu syurtuk o`rta yoshli erkaklarga mo`ljallangan bo`lib, beqasam va sidirg`a matolaridan tikilgan.

Silueti niyopishgan. Uzunligi tizzadan yuqorida. Syurtuk astarli. Bezak sifatida tushirilgan trafaretlar model eskiziga binoan.

Old ikki qismdan iborat: birinchi bo`lagi, yaxlit bichilgan. Old bo`lakning ikkinchi qismi ikki qavat. Old yarim bo`lakning ikkinchi qavati beqasam



matosidan, yaxlit bo`lagi sidirg`a matosidan tikilgan, hamda taklif model asosida tibbiyot xloridan foydalangan holda trafaret tushirilgan. Old bo`lak taqilmasiz.

Ort bo`lak ikki qismdan iborat: ort bo`lak koketkasi va ort bo`lak. Ort bo`lakka taklif model asosida tibbiyot xloridan foydalangan holda trafaret tushirilgan, hamda etak qismida qirqimi bor.

Yon bo`lagi yaxlit bichilgan.

Yengi o`tkazma, ikki chokli yeng: ustki va ostki.

Yoqasi tik yoqa (Ilova 3.20 - rasm).

### **III – modelga tavsif**

Bahor – kuz mavsumiga mo`ljallangan erkaklar syurtugi. Ushbu syurtuk o`rta yoshdagi erkaklarga mo`ljallangan bo`lib, beqasam va sidirg`a matolaridan tikilgan.

Silueti nimyopishgan. Uzunligi tizzadan yuqorida. Syurtuk astarli. Bezak sifatida tushirilgan trafaretlar model eskiziga binoan.

Old bo`lak ikki qismdan iborat: koketka va old bo`lakdan. Old koketka taklif model asosida bichilgan. Old bo`lak ikki qismdan tashkil topgan bo`lib, birinchi qismi sidirg`a matosidan tikilgan. Old bo`lakka model eskiziga binoan tibbiyot xloridan foydalangan holda trafaret tushirilgan va taqilmasiz.

Ort bo`lak ikki qismdan iborat: koketka va ort bo`lakdan. Ort koketka taklif model asosida bichilgan. Ort bo`lak ikki qismdan tashkil topgan bo`lib, o`rta qismi sidirg`a matosidan tikilgan va taklif model asosida trafaret tushirilgan. Etak qismida qirqimi bor.

Yon bo`lagi yaxlit bichilgan.

Yengi o`tkazma yeng bo`lib, ikki chokli: ustki va ostki.

Yoqasi model asosida bichilgan (Ilova 3.21 - rasm).

#### **IV – modelga tavsif**

Bahor – kuz mavsumiga mo`ljallangan erkaklar syurtugi. Ushbu syurtuk o`rta yoshdagi erkaklarga mo`ljallangan bo`lib, beqasam va sidirg`a matolaridan tikilgan.

Silueti niyopishgan. Uzunligi tizzadan pastda. Syurtuk astarli. Bezak sifatida tushirilgan trafaretlar model eskiziga binoan.

Old bo`lak ikki qismdan iborat. Birinchi yarim bo`lagi beqasam matosidan, ikkinchi bo`lagi taklif modelga asosan belgacha sidirg`a matosidan tikilgan. Model eskizga binoan tibbiyot xloridan foydalangan holda trafaret tushirilgan. Old bo`lak taqilmasiz.

Ort bo`lak ikki qismdan iborat. Ort bo`lakka taklif model asosida trafaret tushirilgan. Etak qismida qirqimi bor.

Yon bo`lagi ikki qismdan iborat: yuqori bo`lak va etak qismdan. Yuqori bo`lagi sidirg`a matosidan tashkil topgan.

Yengi o`tkazma yeng bo`lib, ikki chokli: ustki va ostki.

Yoqasi taklif model asosida bichilgan (Ilova 3.22 - rasm).

#### **V– modelga tavsif**

Bahor – kuz mavsumiga mo`ljallangan erkaklar pidjagi. Ushbu pidjak o`rta yoshdagi erkaklarga mo`ljallangan bo`lib, beqasam matodan tikilgan.

Silueti niyopishgan. Uzunligi bo`ksagacha. Pidjak astarli. Bezak sifatida tushirilgan trafaretlar model eskiziga binoan.

Old bolak ikki qismdan iborat. Birinchi bo`lakka tibbiyot xloridan foydalangan holda tushirilgan trafaretlar taklif model asosida. Old bo`lak taqilmasiz.

Ort bo`lak ikki qismdan iborat. O`rta bo`lagiga taklif model asosida trafaret tushirilgan. Etak qismida qirqimi bor.

Yon bo`lagi yaxlit bichilgan, hamda model asosida trafaret tushirilgan.

Yengi o`tkazma yeng bo`lib, ikki chokli: ustki va ostki.

Yoqasi taklif model asosida bichilgan (Ilova 3.23 - rasm).

## **VI – modelga tavsif**

Bahor – kuz mavsumiga mo`ljallangan erkaklar syurtugi. Ushbu syurtuk o`rta yoshdagi erkaklarga mo`ljallangan bo`lib, beqasam va sidirg`a matolaridan tikilgan.

Silueti niyopishgan. Uzunligi bo`ksadan pastda. Syurtuk astarli. Bezak sifatida tushirilgan trafaretlar model eskiziga binoan.

Old bo`lak yaxlit bichilgan va bel qismida yaxlit vitochkasi bor. Old bo`lak taklif modelga asosan modellashtirilgan, hamda tibbiyot xloridan foydalangan holda trafaret tushirilgan. Old bo`lak taqilmasiz.

Ort bo`lak ikki qismdan iborat.

Yon bo`lagi sidirg`a matosidan yaxlit bichilgan.

Yengi o`tkazma yeng bo`lib, ikki chokli: ustki va ostki.

Yoqasi model eskizga binoan old bo`lak bilan yaxlit bichilgan tik yoqa (Ilova 3.24 - rasm).

### 3.5. Konstruksiya usulini tanlash va asoslash

Bugungi kun liboslarda milliy an'analar va Yevropa uslublari uyg'unlashib ketgan. Chunki milliy kiyimlarimiz bizning hayot tarzimizga va iqlim sharoitimizga moslashgan, shu bois, erkak va ayollarning doimiy kiyimlarida ham an'anaviy liboslarda o'z aksini saqlab kelmoqda.

Ushbu to'plamni yaratishda konstruksiyalash uslubi YeMKO SEV metodi tanlandi.

YeMKOning umumiy va universal xususiyati asosiy konstruktiv kesmalar majmuining belgilanishi va ularni aniqlash usulidadir. Kesmalar majmui tananing yuqori va pastki qismlariga mo'ljallangan ikki qismga bo'lingan holda har qanday kiyimlar turida takrorlanadi. Konstruktiv kesmalar majmui moda yo'nalishiga, texnologiya va materiallar xususiyatiga bog'liq emas. Kesmalar majmuidagi har qaysi hisoblash formulalari raqamlar tartibida o'z o'rniga ega. Har qanday kiyim turini konstruksiyalash uchun yagona usulda umumiy yagona ketma-ketlik tuzilgan:

- o'lchamlar yagona tizimi;
- qo'shimchalar tasnifi va yagona tizimi;
- formulalar yagonaligi va konstruksiya tuzilishining yaxlit ketma-ketligi;
- kiyim konstruksiyasining yagona asosi va kiyim turlarining bazaviy asosi;
- konstruksiyaga oid texnik chizmaning qat'i qoidalari;
- konstruktiv nuqtalarning bir xil nomlanishi va raqamli belgilanishi;

Assortimenti, bichimi, vazifasi bo'yicha farqlanadigan turli materiallardan yakka tartibda va ommaviy tarzda tayyorlanadigan turli kiyimlar konstruksiyasini ishlashda ushbu uslub dastlabki baza sifatida qo'llanishi mumkin. Mazkur uslub ilmiy jihatdan asoslangan, chunki uning dastlabki bazasi sifatida nufuzli davlatlar aholisining antropometrik o'lchamlari, ilmiy jihatdan asoslangan konstruktiv va texnologik qo'shimchalar tizimi va konstruksiya qurishda tahliliy hisoblash formulalari ishlatilgan. Asosiy konstruktiv kesmalarining ularga xos o'lchamlar orqali aniqlanishi kiyim konstruksiyasini qomatga yaxshi o'rnatishini ta'minlaydi.

## Nimyopishgan erkaklar syurtugining asos konstruksiyasi

O'lcham: 188 – 108 – 90

№	Konstruksiya bo`lagi	Formula	Konstruksiyadagi
			bo`lak kattaligi
			/A-B/+Π
1	11-91	$T_{40}+(T_7-T_{12})+\Pi$	77,35
2	11-21	$0,3 T_{40} +\Pi$	15,5
3	11-31	$T_{39}+\Pi$	23,35
4	11-41	$T_{40}+\Pi$	47,8
5	41-51	$0,65(T_7-T_{12})+\Pi$	19,2
6	31-33	$0,5 T_{47}+\Pi$	22,45
7	33-35	$T_{57}+\Pi$	16,0
8	35-37	$0,5(45+T_{15}-0,8-T_{14})+\Pi$	21,7
9	31-37	$/31-33/+33-35/+35-37/$	60,15
10	37-47	$T_{40}-T_{39}+\Pi$	21,6
11	47-57	$0,65(T_7-T_{12})+\Pi$	19,3
12	47-97	$T_7-T_{12}+$	30,7
13	33-13	$0,5T_{33}+\Pi$	19,8
14	35-15	$0,44 T_{38}+\Pi$	18,05
15	33-331	Π	4,0
16	35-351	Π	4,0
17	331-341	$0,62/33-35/+a_{17}$	9,9
18	351-346	$0,38/33-35/-a_{18}$	6,1
19	331-332	$0,62/33-35/+a_{19}$	11,4
20	R332-342	$0,62/33-35/+a_{19}$	11,4
20.1	R341-342	$0,62/33-35/+a_{19}$	11,4
20.2	341-332	K	
20.3	R332-13	K	

21	351-352	0,38/33-35/-a <sub>21</sub>	5,1
22	R352-343	0,38/33-35/-a <sub>21</sub>	5,1
22.1	R346-343	0,38/33-35/-a <sub>21</sub>	5,1
22.2	346-352	K	
22.3	R352-15	K	
23	11-111	011	0,5
24	41-411	041	1,5
25	51-511	051	1,5
26	91-911	091	1,5
27	111-12	0,18 T13+Π	7,9
28	111-112	0,25/111-12/	2,0
29	12-121	0,08 T13+Π	2,65
30	13-14	(3,5÷4,0)-0,08 T47	0,5
31	121-122	0,45/121-14/	K
32	31-32	0,17 T47+011+Π	8,5
33	122-22	0,45/122-32/	K
34	122-22-122'	β <sub>34</sub> -1,7-0,9ΠC <sub>31-32</sub>	9,5°
35	R122-14'	122'-14	
36	R22-141	22-14'	
36.1	R121-141	121-14	
37	R22-123	22-123'	
38	121-113	K	
38.1	111-113	K	
39	R121-111	/121-113/-a <sub>19</sub>	
39.1	R112-114	/121-113/-a <sub>21</sub>	
40	121-112	K	
41	14'-342'	K	
41.1	332-342'	K	
42	R14'-342''	14'-342'	

42.1	R332-342''	14'-342'	
43	332-14'	K	
44	4471	0,24 T18-0,5(T45+T15-0,8-T14)0,5 T46+Π	1,5
45	471-46	0,5 T46+Π	12,4
46	46-471'	K	
47	47-36	T36-T35+Π	21,1
48	36-371	K	
49	36-372	T35-T34+Π	7,55
50	R36-372'	36-372	
50.1	372-372'	0,5(T15-0,8-T14)+Π	0,75
50.2	R36-371'	35-371	
51	371'-361	0,18 T13+Π	8,25
52	R36-16	T44-(T40+0,08 T13-0,7)-(T36-T35)+Π	
53	R16-14''	121-14	
54	16-161	0,195 T13+Π	8,85
55	16-171	K	
55.1	17-171	K	
56	R16-172	16-171	
56.1	R17-172	16-171	
57	16-17	K	
58	R14''-343'	K	
58.1	352-343'	K	
59	R14''-343''	14''-343'	
59.1	R352-343''	14''-343'	
60	352-14''	K	
61	411-470	0,5 T18+Π	51,5
62	511-570	0,5 T19+Π	56,75

63	ДП	$0,95 \quad T_{38} + (\Pi_{33-13} + \Pi_{33-15}) + 0,57(T_{57} + \Pi_{33-35}) + 2/33-331/$	55,3
63.1	ПОР	П ДП	3,85
63.2	ДОР	Дп	59,15
<b>Yeng</b>			
64	331-351 (ШП)	33-35	16,0
65	331-341	$0,62/33-35/+a_{17}$	9,9
66	351-346	$0,62/33-35/-a_{18}$	5,1
67	331-332	$0,62/33-35/+a_{19}$	11,4
68	R332-342	$0,62/33-35/+a_{19}$	11,4
68.1	R341-342	$0,62/33-35/+a_{19}$	11,4
68.2	341-342	К	
69	351-352	$0,38/33-35/-a_{21}$	5,1
70	R352-343	$0,38/33-35/-a_{21}$	5,1
70.1	R346-343	$0,38/33-35/-a_{21}$	5,1
70.2	346-352	К	
71	351-333 (ШОР)	$T_{57} + 4,0 + \Pi$	21,1
72	333-13 (BOP)		18,35
73	13-14	$0,45/351-333/$	9,5
74	13-141	$0,73/351-333/$	15,4
75	15-141'	15-141	
76	141'-353	$0,5/141'-343/$	
77	R353-354	353-343	
78	141-142	141-15	
79	14-143	$0,5/14-141/$	
80	13-131	$0,25/333-13/$	
81	131-132	$K_{31}(\text{ШОР}-\text{ШП}-4,0)$	4,6
82	132-344	$0,5/132-342/$	0,45



83	R344-345	344-342	
84	13'-133	13'-133'	
85	133-134	0,5/133-132/	
86	133-144	0,5/133-14	
87		$\beta$ 87	2,5°
88	13-333-93	T33-/121-14/+II	66,0
89	13-333-43	T32-/121-14/+II	37,85
90	95-931	0,5 T29+II	15,45
91	95-94	0,5/95-931/	7,7
92	931-932	0,5/93-931/	
93	45-451	K	

## Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish

3.23 – jadval

### Andozalardagi chok haqlari

Detal nomi	Biriktiruv Chok (mm)	Bostirma Chok (mm)	Buklov Chok (mm)
01. Old bo`lak - Bo`yin qirqim - Yelka qirqimi - Yeng o`miz qirqimi - Yon qirqimi - Vitochka - Bort - Etak qirqim	10 10 10 10 10 10		30
02. Ort bo`lak - Bo`yin qirqim - Yelka qirqim - Yeng o`miz qirqim - Yon qirqim - O`rta qirqim - Etak qirqim	10 10 10 10 10		30
03. Yon bo`lak - Yeng o`miz qirqim - Yon qirqim - Etak qirqim	10 10		30
04. Yeng - Yeng o`miz qirqim - Yon qirqim - Yeng uchi qirqim	10 10		30
05. Yoqa	10		

## Detallar spetsifikatsiyasi

№	Buyum detallarining nomi	Detal kodining belgisi	Soni		Izoh
			andozalar	detallar	
Avra					
1	2	3	4	5	6
1	Old bo'lak	001	1	2	
2	Old bo`lak koketka	002	1	2	
3	Ort bo'lak	003	1	2	
4	Ort bo`lak koketka	004	1	2	
5	Old yeng	005	1	2	
6	Ort yeng	006	1	2	
7	Yoqa	007	1	2	
8	Adip	008	1	2	
Astar					
9	Old bo'lak astari	009	1	2	
10	Old bo`lak koketka	010	1	2	
11	Ort bo'lak astari	011	1	2	Buklov
2	Ort bo`lak koketka	012	1	2	
13	Old yeng astari	013	1	2	
14	Ort yeng astari	014	1	2	
15	Old bo'lak qotirmasi	015	1	2	
16	Adip qotirmasi	016	1	2	
17	Ort bo'lak yoqa o'mizi qotirmasi	017	1	2	

**Andozalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yxati**

№	Detallar va qirqimlar	Kertiklar joylashishi
1	Old bo`lak – yon qirqim	Bel chizig`ida
2	Ort bo`lak – yon qirqim	Bel chizig`ida
3	Yon bo`lak – yon qirqim	Bel chizig`ida
4	Yeng – yeng o`mizi	Yeng o`mizi qirqimi va buklov kesimida
5	Yoqa – bo`yin o`mizi qirqimida	Yelka chokiga birikadigan nuqtada

**Detallarda tanda ipining nominal yo`nalishi va andozalarda ulardan yo`l qo'yilgan og`ishlar ( % )**

№	Detal nomi	Tanda ipining yo`nalishi	Tanda ipining yo`l qo'yilgan og`ishi %
1	Ort bo`lak	Etak chizig`iga perpendikular	
2	Old bo`lak	Etak chizig`iga perpendikular	
3	Yon bo`lak	Etak chizig`iga perpendikular	
4	Yeng	Yeng uchiga perpendikular	
5	Yoqa	Yoqa ziyiga perpendikular	
6	Adip	Bort chizig`iga parallel	
7	Ort adip	Bort o`rta chizig`iga perpendikular	

**Andazalar spetsifikatsiyasi**

№	Qismlar nomi	Qismlar soni		Belgilanishi
		bichimda	andazada	
	1	2	3	4
1	Ort bo'lak koketkasi	1	2	01
2	Old bo'lak koketkasi	1	1	02
3	Ort yupka bo'lagi	1	1	03
4	Old yupka bo'lagi	1	1	04
5	Yeng bo'lagi	1	2	05
6	Astar ort bo'lak koketkasi	1	2	06
7	Astar ort yupka bo'lagi	1	2	07
8	Astar old bo'lak koketkasi	1	1	08
9	Astar old yupka bo'lagi	1	1	09
10	Old adib bo'lagi	1	1	010
11	Ort adib bo'lagi	1	2	011

### 3.6. Materiallarni sarf me'yorini hisoblash

Material sarfi asosiy andoza detallarining yuzasini topib orqali amalga oshiriladi.

Ushbu bo'limda andozalar maydonini o'lchash, andozalarni gazlamaga yoyish va andozalararo chiqindilar foizini aniqlash ishlari o'tkaziladi. Tushuntirish xatida andozalar maydonini o'lchashda foydalanilgan usul tavsiflanadi.

Asosiy detallar va butun komplekt andozalarining yuzasini o'lchash natijalari 3.31 - jadvalda keltiriladi.

3.31 - jadval

#### Modelni bichish jarayonida andozalararo chiqimlar hisobi (beqasam va sidirg`a)

Tarmoq normativlari boyicha andozalararo chiqitlar nomi	Andozalararo chiqitlar miqdori	
	Beqasam	Sidirg`a
Umumiy norma	15%	15%
Model xususiyatiga qo'shimcha	5%	5%
Yangi model detallari yoyilmasiga oid andozalararo chiqitlarning jamlangan miqdori (B <sub>φ</sub> )	20%	20%

Yoyilmani bajarishdan avval uning dastlabki uzunligi quyidagicha hisoblanadi:

$$L_p = \frac{H_0 n p}{III_p}$$

Bu yerda:

$H_0.n.p$  – bo'rlamaning dastlabki normasi;

$III_p$  – gazlamaning eni, m.

$$\text{beqasam } L_p = \frac{H_0 n p}{III_p} = \frac{8100}{90} = 0,90$$

$$\text{sidirg`a } L_p = \frac{H_0 n p}{III p} = \frac{18000}{150} = 1,2$$

Bo'rlamaga sarflanadigan materialning dastlabki normasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$H_0 n p = \frac{F_{\text{л}} 100}{100 - B_{\text{н}}}$$

Bu yerda:

$F_{\text{л}}$  – andozalar yuzasi,  $\text{m}^2$ .

$B_{\text{н}}$  – andozalar orasidagi chiqitlar, normativ miqdori.

$$\text{beqasam } H_0 n p = \frac{F_{\text{л}} 100}{100 - B_{\text{н}}} = \frac{6480}{100 - 20} 100 = 8100$$

$$\text{sidirg`a } H_0 n p = \frac{F_{\text{л}} 100}{100 - B_{\text{н}}} = \frac{14400}{100 - 20} 100 = 18000$$

Yoyilmani bajarishda andazalar yoyilmasiga qoyiladigan maxsus texnik shartlar va talablarga rioya qilinadi. Xususan yoyilma tuzganda gazlama gullariga, tuklar yo'nalishiga, detallarda tanda va arqoq iplarining yo'nalishiga e'tibor beriladi.

Andazalararo chiqitlar foizi quyidagicha hisoblanadi:

$$B_{\phi} = \frac{(H_{O\phi} - F_{\text{л}})}{H_{O\phi}} \cdot 100$$

Bu erda:  $H_{O\phi}$ .- bo'rlamaning haqiqiy normasi,  $\text{cm}^2$ .

$$\text{Beqasam } B_{\phi} = \frac{(H_{O\phi} - F_{\text{л}})}{H_{O\phi}} \cdot 100 = \frac{8100 - 6400}{8100} 100 = 20\%$$

$$\text{Sidirg`a } B_{\phi} = \frac{(H_{O\phi} - F_{\text{л}})}{H_{O\phi}} \cdot 100 = \frac{18000 - 14400}{18000} 100 = 20\%$$

### **3.7. Liboslar to'plami reklamasini ishlab chiqish**

#### **(Brand - name tanlash)**

“Reklama” atamasi lotincha “reklamare” soʻzidan olingan boʻlib, “jar solmoq”, “eʼtiroz bildirmoq” degan maʼnolarni anglatadi. Reklamaning taʼrifi koʻp. Jumladan, xorij adabiyotida reklama, asosan marketing nuqtai nazaridan talqin etiladi. Masalan, Xalqaro reklama assotsiatsiyasining taʼrifiga koʻra, reklama: “gʻoyalar, tovarlar yoki xizmat turlarining aniq buyurtmachi tomonidan haq toʻlangan holda noshaxsiy taqdim etilishi va oldinga qarab siljishining har qanday shaklidir”.

“Reklama kommunikatsiyasining moliyalashtirish manbai aniq koʻrsatilgan holda, pullik axborot tarqatish vositalari vakolatxonasi orqali amalga oshiriladigan noshaxsiy shaklidir” [39].

Yanada mufassalroq taʼrif quyidagicha: “Reklama – nomaʼlum shaxslar doirasiga qaratilgan hamda reklama obyektiga eʼtiborni jalb qilish, unga qiziqishni shakllantirish yoki saqlab turish, uni bozorda olgʻa siljitishga yoʻnaltirilgan, har qanday usul hamda shaklda, har qanday vositalar yordamida tarqatilgan axborotdir [40].

Logotiplarni ustidan ishlash muhim va murakkab ish hisoblanadi. Logotip – bu soʻz orqali ifodalangan belgi shakli. Ular mavjud shriftlarni, garniturani chizilishi va uni korrektirovkasidan, boʻsh qolgan joylarni toʻldirishdan, grafemalarni transformatsiyasini qidirishdan yaratilish boshlanadi [41].

Har bir dizaynerga mahsulotini ommaga namoyish etishi uchun brend - name zarur. Logotip eskizlarini ishlashdan oldin mavjud firma uslublarini oʻrganish va tahlil qilish kerak.

Ushbu dissertatsiya uchun “Madina” nomli brend tanlandi. Brend nomi dizayner Madina ismidan olingan. Ushbu brend tomonidan yaratilgan liboslar asosan oʻrta yoshdagi erkaklarga moʻljallangan boʻlib, ularning oʻziga xosligi har bir libosda amaliy sanʼat turlaridan biri boʻlgan yogʻoch oʻymakorligi naqshlarini trefaret texnikasida qoʻllanilganligidadir. Mazkur brend milliy matolar va bejirim ishlovlar bilan oʻz kolleksiyasini doimiy tarzda boyitib boradi (Ilova 3.25 - rasm).



### III bob bo'yicha xulosa

“Pret – a - porte” yo`nalishida erkaklar kostyumini loyihalashning o`ziga xos xususiyatlari, o`rta yoshdagi erkaklar kiyimlarida qo`llaniladigan uslublar va zamonaviy moda yo`nalishi, o`rta yoshdagi erkaklar kiyimini loyihalashda turli xorijiy konstruktiv metodlar ya`ni, “YEMKO SEV”, “Unifred Aldrich” ingliz, Fransuz, Italiyan metodlari o`rganilib, ular orasidan qomatda yaxshi o`tirgan “YEMKO SEV” metodi tanlab olindi.

Loyihalangan model, ya`ni o`rta yoshdagi erkaklar pidjagi konstruktiv yechim jihatlari, materiallar konfeksiyasi va andazalar mukammal ishlab chiqilgan. Konstruksiyani bajarishda “Yemko SEV” metodikasidan foydalanilgan. “Yemko SEV” metodikasi boshqa metodlarga nisbatan odam qomatida yaxshi o`tirishi bilan boshqa metodlardan ajralib turadi. Inson tanasida ham noqulayliklar keltirmaydi. Harakat qulayligini ta`minlaydi. Bu esa uning ishlab chiqarishga ham tadbiiq qilinishi mumkinligini ko`rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Sh. M. Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent, “O`zbekiston”, 2016 – yil
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risidagi farmoni. Toshkent “Adolat” 2017, 4 – bet.
3. I. A. Karimov “ Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch”. Toshkent: 2009 – yil
4. Коблякова Е. Б. Основы проектирования рациональных размеров и формы одежды. М 1982
5. Komilova X. X., Namrayeva H. N. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. Toshkent – “Moliya” nashriyoti – 2003
6. Исмаилов. X. „Традиционная одежда Узбеков”. – Ташкент, Фан. 1978 г
- Suxarova O. A. “Костюм народов Средней Азии”. “Наука”, 1979 yil
8. Faxriddinova D. A. “Декоративно – прикладное искусства Узбекистана” Toshkent, 1972 yil
9. Леухина Г. Н., Ляпина О. А., Веремива Т. Л. “Климат Узбекистана” Ташкент, 1996 г
10. Qudratov A. “Sanoat ekologiyasi”. Toshkent, 2013yil
11. Suxarova O.A. “Народное декоративные искусства советского Узбекистана” Tekstil, Toshkent 1945 yil
12. Махкамova S.M. “Узбекские абровие ткани”. Toshkent, 1963 yil
13. Sodiqova N. “XIX – XX asr O`zbek milliy kiyimlari” Toshkent, 2007
14. Махкамova S. M. “Beqasam”
15. “Мода и стил”. Современная энциклопедия.
16. Саймон Треверс – Спенсер, Зарида Замон “Справочник дизайнера по форма и стилям одежды”. Москва, 2008
17. Чернышева.Л.А. «Большая энциклопедия». АСТ: 2015 год.
18. Adolat Imomova. “Moziydan sado” jurnali.24-bet
19. Ochilov J. “Gazlamashunoslik”. 2008

20. Кокеткин П.П. «Справочник по конструированию одежды». Москва. 1982
21. Komilova X. X., Namrayeva H. N. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” Toshkent. Cho`lpon, 2011
22. О.И.Крымова «Проектирование швейных изделий». – Т.: «Укитувчи», 1985.
23. Е. А. Янчевская “Конструирование одежды”.
24. Саламатина
25. Конструирование одежды
26. Основы конструирования одежды
27. “Единая методика конструирования одежды” САВ (ЕМКО СЭВ). Том – 3. – М: 1988
28. Unifred Aldrich “ Конструирование и моделировании”. Мужской одежда. Москва 2008 г
29. Italian
30. Fransuz
31. Amaliy sanat
32. Karimov X. Usta Qodir. Toshkent, G`. G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1911 yil
33. Abdurasulov S., Tolipov N. “Rang - tasvir”- T; Bilim nashriyoti. O`MTXTM, 2005
34. Усмонов О. “Камолиддин Бехзод ва унинг наққошлик мактаби”. Тошкент, УзССР “Фан” нашриёти, 1977
35. Xasanbayeva G. K. “Libos dizayni” ma`ruza matni. – Т.: TTYeSI bosmaxonasi, 2011
36. O`zbekiston amaliy san`ati
37. Шарлотта Зелинг “Мода век модельеров – 1900 - 1999”. Konemann Verlagsgesellschaft mbH. 1999
38. “Beqasam”. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, Birinchi jild. Toshkent, 2000

39. Мальцева Е. П. „Тикувчилик материалшунослиги”. Тошкент, Укитувчи, 1986

40. Kotler F. “Основы маркетинга”. –М “ Прогресс”, 1990.С. 203

41. Komilova X.X., Karimova G.I. “Reklama va dizyn”. Toshkent “O`zbekiston” 2012 yil

42. “Dizayn nazariyasi va metodologiyasi asoslari” fani bo`yicha ma`ruza kursi.

Internet

[www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

[www. Google. uz](http://www. Google. uz)

[www. wikipedia. ru](http://www. wikipedia. ru)

[fashion- tv. com](http://fashion- tv. com)

[www. fashionblog 2016-2017](http://www. fashionblog 2016-2017)

[www. all- moda](http://www. all- moda)

[www. logoster. ru](http://www. logoster. ru)

[www. intermode. ru](http://www. intermode. ru)

[www. arthistory. ru](http://www. arthistory. ru)

[www. textileclub.ru](http://www. textileclub.ru)

[www. textilegroup. ru](http://www. textilegroup. ru)

[www. vsl-hautecoutoure. com](http://www. vsl-hautecoutoure. com)

[www. moda. uz](http://www. moda. uz)

COLESIONE 2013 (журнал)

**ILOVA**